



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda На почте

2024-yil
11-yanvar
payshanba

№ 2 (4644)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: postda@postda.uz

Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur. Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz jasorati, ularning «Bilagi zo'r – birni yengar, ongi va yuragi zo'r esa – mingni» degan dono o'g'itlari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqatni uqtiradi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni.



14-YANVAR - VATAN HIMOIYACHILARI KUNI

USHBU SONDA:

SIZ BORKI,
BIZ XOTIRJAM



«БУ ЖУДА ҚЎРҚИНЧЛИ ЎЙ»

Саид Мухторов «18-квадрат»
ҳақидаги саволдан нега
чўчиди?



BILIM BAHSLARDA SINALADI



MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

BILIM VA TAJRIBA – QO'SH QANOTI

Harbiylik kishidan har qanday sharoit va vaqtda jangovar, ruhiy hamda jismoniy shaylikni talab etadigan kasbdir. Shu bilan birgalikda, ma'naviy-ma'rifiy bilim va malaka ham yetarlicha bo'lmog'i talab etiladi.

Ushbu jihatlarni o'zida mujassam etgan Botirali Haydarov dastlab Farg'ona viloyatidagi harbiy litseyda o'qidi. Keyinchalik IIV Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtida yig'itlik burchini o'tab, shu dargohda tahsil oldi.

Leytenant B. Haydarov ilk faoliyatini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizdagi 7531-harbiy qismda guruh komandiri lavozimida boshlaydi. Ustozi – podpolkovnik Ilhom Ortiqovning maslahat va yo'l-yo'riqlariga amal qilib, mas'uliyatni his etgan hol-

da toblanadi. Topshiriqlarni bekor-u ko'st bajarishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi bilan jamoada e'tibor qozondi. To'plagan tajribasi va malakasi xizmat pillapoyalaridan yuqorilashida asqatdi. O'tgan yillar davomida esa xizmatga oid bilim va tajribasini yanada boyitdi. Mana, uch yildirki, Qarshi shahridagi 7533-harbiy qismda 1-batalyon komandiri lavozimida xizmat qilmoqda.

– Podpolkovnik B. Haydarov yosh harbiy xizmatchilarga kasb sirlarini o'rgatishdan tashqari, turli ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarda hamda sport musobaqalarini tashkil etishda faollik ko'rsatmoqda, – deydi harbiy qism komandirining birinchi o'rinbosari – shtab boshlig'i, mayor Bobur Ismoilov. – Jumladan, o'tgan yili «Eng ilg'or kasb

mutaxassisi» ko'rik-tanlovining «Eng ilg'or batalyon komandiri» nominatsiyasida Qorovul qo'shinlari miqyosida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Mas'uliyat, ziyraklik va mushohada xizmat faoliyatimiz me'zonidir, – deydi podpolkovnik Botirali Haydarov.

Bugun ko'plab yoshlar B. Haydarovni ustoz deya e'zozlashadi. Toshkent shahridagi 7534-harbiy qism batalyoni shtabi boshlig'i, kapitan Laziz Jo'rayev, 7531-harbiy qism tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'limi boshlig'i, kapitan Bo'ston Ato'yev hamda Qarshi shahridagi 7533-harbiy qism 1-batalyoni shtab boshlig'i, mayor Azizjon Gulmatov shular jumlasidan.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



ONANING DIL IZHORI

SIZ BORKI, BIZ XOTIRJAM

Ushbu suratga tushganimizga ham 8 yil bo'libdi. O'g'lim Odiljon Soliyev hozirgi kunda IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli 7254-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbar vavodi harbiy xizmatchisi lavozimida xizmat qilayapti, unvoni kichik serjant.

O'tgan yillar davomida o'g'lim ko'plab yutuqlarga erishdi. Oila qurdi, sportning «Kombat aykido» turi bo'yicha Namangan viloyati birinchiligida

1-o'rin, Osiyo chempionatida esa 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Intensiv sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgani uchun «Dovyurak jangchi» farqlovchi nishoniga sazovor bo'ldi, shuningdek, «Alvon beret» sohibiga aylandi. Bundan tashqari, IIV miqyosida o'tkazilgan jamoaviy o'q otish musobaqalarida ham faol qatnashib, faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Men uchun yana bir quvonarlisi, u hozir Namangan shahridagi oliy o'quv yurtida axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha tahsil olaypti.



(Oilaviy arxivdan.)



Umrni oqar daryoga qiyoslashganda ko'pincha bu o'xshatish qay darajada to'g'ri ekanini haqida o'ylaymiz. Kechagina atak-chechak qilib qilib yurishni boshlagan polaponimning bugunga kelib Vatan himoyachisi degan sharaflil nomga sazovor bo'lishi qalbimga qanchalik g'urur baxsh etishini so'zda ifodalashim qiyin.

Ko'cha-ko'yda bolalarning shodlikdan qiyqirib yurganini ko'rib, tinchlikning naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir karra xayolimdan o'tkazaman. Dunyoning ko'plab davlatlarida ulg'ayayotgan o'smirlar bolalikning nima ekanini hatto anglamay katta bo'layotgani bizni hushyorlikka, tinchlikning qadriga yetishimizga undashi zarur.

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tinchlik-osoyishtalikni asrash yo'lida xizmat qilayotgan jasur o'g'lonlarimizni, barchinsifat qizlarimizni onalik mehrim bilan tabriklayman. Ular bilsinki, dasturxon boshida tinchlik uchun qilingan duolarda ularning nomlari ham jaranglaydi...

Ona sifatida yurtimiz sarhadlarini himoya qilish, xalqimiz tinchlik-osoyishtaligini asrash yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan dovyurak farzandlarimizning ertangi kuni bugunidan ham farovon, hayotlari buloq suvidek pokiza bo'lishiga ishonaman.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz farzandlarim, Vatanimiz posbonlari!

Ihtibarxon TOPILDIYEVA.
Namangan viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

Abdumuxtor ichki ishlar organlariga kiraman deganida, otasi Ro'zimat aka: «Barakalla, o'g'lim, haqiqiy erkakning kasbini tanlabsan», deya o'g'lining tanlovini ma'qulladi. Onasi Malikaxon aya esa uning maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashini xohlardi. Biroq o'g'lon egniga ichki ishlar organlari libosini kiyganida, onaizor quvonch yoshlarini tiya olmadi...



DOVONLAR OSHA

A. Tulanov ichki ishlar organlarida 23 yildan beri xizmat qiladi. Xizmat faoliyatini Marhamat tumani IIB HPB profilaktika inspektori lavozimida boshlab, shu yerda katta inspektor, tuman IIB boshlig'i o'rinbosari va keyinchalik Bo'z tumani IIB boshlig'i o'rinbosari lavozimlarida davom ettirgan.

U o'z faoliyati davomida hamkasblari hamda qo'l ostidagilar bilan hamjihat bo'lib, ularning boshini qovushtirib, hududda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashga bor kuch va imkoniyatini ishga solgan holda xizmat olib bordi. Sohada samaradorlikka erishish yo'lida izlandi va tajribasini orttirib bordi. Fidoyiligi va oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun olib borgan sa'y-harakatlari barchaga ibrat bo'ldi. Uning eng hurmatga sazovor fazilatlaridan biri – o'ziga ravo ko'rgan yaxshiliklarni boshqalarga ham ilinishida. Shuning uchun bo'lsa kerak, hamkasblari unga o'z tug'ishganidek munosabatda bo'lishadi.

Marhamat tumani IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Abdumuxtor Tulanov xizmat vazifalarini namunali tarzda bajargani, ko'rsatgan jasorati va fidoyiligi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari xodimlari kuni arafasidagi farmoniga binoan, «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan. Uning bunday e'tirofga sazovor bo'lishi zamirida ota-onasining unga

bergan tarbiyasi, ustozlarining o'giti hamda faoliyati davomida xalqi va yurti uchun sidqidildan qilgan xizmatlari yotibdi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

– Kamtarona xizmatlarim davlatimiz tomonidan e'tirof etilgani uchun Prezidentimiz va IIV rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman. Kelgusida xalq tinchligi va osoyishtaligi yo'lida yanada shijoat bilan xizmat qilib, bu ishonchni oqlayman, – deydi qahramonimiz.

Osoyishtalik posbonlarining xizmatda muayyan yutuqlarga erishishida ularning oila a'zolarining ham o'rni katta. Axir, oilasidan ko'ngli xotirjam xodimgina zafarli davonlardan shaxt bilan osha oladi.

Podpolkovnik Abdumuxtor Tulanov nafaqat o'z kasbining fidoyisi, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega rahbar, balki farzandlarining mehribon otasi, ibratli oila boshlig'i ham. U tumandagi qishloq maktabida o'qituvchi bo'lib ishlaydigan turmush o'rtog'i Latofatxon bilan ikki qizni voyaga yetkazdi.

To'ng'ich qizi Nargizabonu Andijon davlat universitetining a'lochi talabalaridan biri. Uning maqsadi ingliz tili yo'nalishi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish, o'qituvchilik kasbini egallash. Ikkinchi qizi Niginabonu esa ota izidan ketib, el-yurt osoyishtaligi va xotirjamligiga hissa qo'shib, egniga ichki ishlar organi xodimi libosini kiymoqchi. Hozirda u IIV Andijon akademik litseyida tahsil olyapti.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

HAMJIHATLIK —
MUHIM OMIL

Ayol nega jinoyatga qo'l uradi? Ushbu savol bilan Samarqand viloyati IIB Huquqbu-zarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Nigora Yodgorovaga murojaat etdik.



– Xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar o'ziga xos xususiyati, ko'lami va oqibatlariga ko'ra erkaklar jinoyatchiligidan keskin farq qiladi. Bundan tashqari, ayollar jinoiy harakatlarni sodir etishning boshqacha usullarini va vositalarini tanlaydilar.

Samarqand viloyatida o'tgan yili ayollar jinoyatchiligi 3,7 foizga kamayishiga erishildi. Biroq huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining bu borada qiladigan ishlari hali ko'p.

Ayollar o'rtasidagi jinoyatchilik ko'proq firibgarlik holatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning qariyb 40 foizini o'g'rilik tashkil etadi. Shuningdek, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar ham uchrab turadi.

Ilgari ayollar his-tuyg'ular ta'sirida yoki dugonalarining gij-gijlashi sababli jinoyatga qo'l urardi. Hozir esa ko'proq o'z-galarning mol-mulkini o'zlashtirish, boyib ketish istagida jinoyat sodir etishyapti. Pirovardida, ular o'rtasida firibgarlik holatlari ko'paymoqda.

Ayollar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida xodimlarimiz mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari bilan hamkorlikda xotin-qizlar muammolarini

manzilli o'rganishdi. Natijada 7,5 mingdan ziyod muammo va 1375 ta ajrim yoqasida turgan oila borligi aniqlandi. Ularning har biriga zarur yordam ko'rsatildi. Shuningdek, biz zo'ravonlik qurbonlariga himoya orderlarini berish bo'yicha ishlarni davom ettirdik.

Muqaddam sudlangan va profilaktik hisobda turgan ayollarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda 800 nafardan ziyod xotin-qizlar profilaktik hisobga olingan, 32 nafari muqaddam sudlangan, 25 ming nafardan ziyod ayollar xorijdan qaytgan.

Jinoyatchilikning oldini olishda hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududida ayollar uchun 600 dan ziyod bandlikka ko'maklashish va sog'lomlashtirish markazlari ochildi. Ularda xotin-qizlarga nafaqat kasb-hunar o'rganishi, balki fitnes kurslariga ham yozi-lishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Mazkur markazlar faoliyati xotin-qizlarni turli kasb-hunarlariga o'rgatish, joylarda ishchi kuchi salohiyatini oshirish va bandlikni ta'minlashga ko'maklashishga qaratilgan. O'tgan yil mobaynida 2,5 mingga yaqin xotin-qizlar ushbu markazlarda o'qitildi, ularning aksariyati keyinchalik o'z biznesini ochdi.

Zamira BOLTAYEVA
yozib oldi.

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

ПЛОДОТВОРНЫЙ ДИАЛОГ

Представители ГЭК МВД Узбекистана в целях обмена опытом и повышения квалификации посетили Государственный комитет судебных экспертиз Беларуси, где на сегодняшний день проводится более 120 видов экспертиз и исследований.



– Состоялся взаимовыгодный диалог о перспективах экспертно-криминалистической деятельности, – говорит начальник отдела ГЭК подполковник Шоакром Шомахсудов. – Специалисты главных управлений криминалистических и технических экспертиз Центрального аппарата ГКСЭ Беларуси поделились опытом по актуальным направлениям судебной баллистической, почерковедческой, компьютерно-технической экспертизы, технической экспертизы

документов, радиоэлектронных устройств.

Особый интерес вызвали экспертизы холодного и метательного оружия, почерковых объектов по копиям документов, цифровых рукописных подписей, специфика ведения баллистических учетов. Были организованы занятия, в том числе по исследованию фальшивых банкнот класса «супер», водительских прав, чипов идентификационных карт и др., ознакомление со специальными лабораториями.

В формате визита состоялись встречи с руководством ГКСЭ, его территориальных подразделений. Стороны выразили заинтересованность в обмене опытом и технологиями, углублении сотрудничества, что согласуется с положениями постановления Президента Узбекистана «О мерах по дальнейшему совершенствованию экспертно-криминалистической деятельности органов внутренних дел с широким внедрением достижений современной науки».

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

ДИНАСТИЯ

ЛЮБОВЬ К ПРОФЕССИИ, ПЕРЕДАВАЕМАЯ НОВЫМ ПОКОЛЕНИЯМ



Кучкар Рустамов.

Все началось с деда – Кучкара Рустамова, который окончил годичную школу КГБ в Ленинграде и более 30 лет прослужил в правоохранительных органах. Начав карьеру в специальном управлении КГБ Узбекистана, позднее он был переведен в органы внутренних дел. Работал в Самарканде, дослужился до звания майора.

Дело отца продолжил Эркин Рустамов. С 1978 по 2005 годы

В органах внутренних дел династии не редкость. Как правило, это семьи с устоявшимися традициями, в которых опыт и знания передаются из поколения в поколение. В их числе династия Рустамовых, где ценности и любовь к выбранному делу передаются от деда отцу, от отца сыну, а затем внукам.

он занимал должность начальника отдела уголовного розыска УВД. Будучи на заслуженном отдыхе подполковник в отставке до недавнего времени продолжал трудиться юристом в одном из государственных банков.

В беседе с нами Эркин Рустамов с гордостью говорит, что воспитал достойных сыновей и дочерей. Сыновья, Шерзод и Бекзод, продолжают династию.

– На мой взгляд, сотрудником органов правоохраны может стать далеко не каждый. Эта профессия требует особого склада характера, твердости, способности быстро принимать правильные решения,

высокого чувства ответственности, – подчеркивает Э. Рустамов. – Это непременно должен быть человек, всем сердцем преданный своему делу, который осознает значимость выбранной профессии, не боится опасностей, готов посвятить жизнь служению Родине, людям. Семья – главная поддержка в жизни каждого, а тем более сотрудника органов внутренних дел. Я вырос в такой семье. Сегодня передаю пример старшего поколения Рустамовых сыновьям, поддерживаю их в начинаниях.

Младший сын, Бекзод Рустамов, профессиональную деятельность в органах внутренних



Эркин Рустамов (в центре) с сыновьями Шерзодом (слева), Бекзодом (справа) и внуками.

дел начал в 2009 году после окончания юридического факультета СамГУ. За годы службы занимал руководящие должности в Следственном управлении, с 2022 года – начальник Организационного управления УВД Самаркандской области. Он в звании подполковника.

Старший сын, Шерзод Рустамов, к службе приступил в 2013

году, также после окончания юридического факультета СамГУ. Он майор, является оперуполномоченным по особо важным делам Управления уголовного розыска УВД области.

Шерзод и Бекзод Рустамовы признаются, что в профессию шли по зову сердца. Для них дед и отец всегда были и остаются примером для подражания.

кавалера ордена «Соғлом авлод учун» 1-й степени Шокира Раззокова, подполковников в отставке Бобохона Киличева, Алишера Худойбергана и майора в отставке Эгамберди Зарипова. От имени руководства РОВД поздравили их с Днем защитников Родины.

Ветераны, которые в свое время боролись с преступностью, обеспечивали мир и спокойствие граждан, а ныне



Лейтенант Орзигул Ражабова и ветеран Шокир Раззоков.

службы. Коллеги вспомнили немало ярких эпизодов из богатой биографии пенсионера, характеризующих его профессионализм.

В тот же день группа ответственных работников побывала в домах ветерана труда,

находясь на заслуженном отдыхе, выразили благодарность за оказываемое внимание.

Подобные акции проходят во всех городах и районах области.

Соб. корр.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.



2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

YUKSAK MARRALAR SARI

Prezidentimiz O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Yangi yil tabrigida 2024-yilni mamlakatimizda «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili» deb e‘lon qildi. Bu bejiz emas. Chunki mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda yoshlarimiz istiqbolini ko‘zlab, qancha sarmoya kiritsak davlatimiz va uning kelajagi uchun samarasi shuncha katta bo‘ladi.



Yurtboshimiz joriy yilda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozimligini ta‘kidladi. Zero, jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodning jismoniy jihatdan sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar uchun yaratib berilgan imkoniyat va qulayliklarning bugun o‘z mevasini berayotganini o‘zim misolimda ham aytishim mumkin. Bir necha yillardan buyon sportning sambo va dzyudo turlari bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqdaman. Sambo bo‘yicha bir necha marotaba yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan O‘zbekiston chempionatida faxrli 1-o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘ldim. 2021-yilda Gretsiyada o‘tkazilgan jahon chempionatida, Rossiyaning Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan MDH davlatlari chempionatida II darajali diplom va medalni qo‘lga kiritdim. Shu bilan birga, «O‘zbekiston sport ustasi» va «Xalqaro toifadagi sport ustasi» unvonlariga ega bo‘ldim. 2022-yil may oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV tizimida xizmatni boshlab, bugungi kunda vazirlikning tezkor-qidiruv xizmatida faoliyat yuritmoqdaman. Turmush o‘rtog‘im Ilxam Qaljanov ham ichki ishlar organlarida xizmat qiladi. U qo‘l jangi bo‘yicha sport ustasi.

O‘tgan yil men uchun ham juda omadli bo‘ldi. Sababi, 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining «Umid uchquni» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Albatta, bu menga bildirilgan ishonchning yana bir ko‘rinishi. Kelgusida boshqa yoshlar qatori, Vatanimiz sha‘nini himoya qilish, tinchlik-osoyishtalikni asrashdek ezgu ishlarda o‘z hissamni qo‘shish niyatidaman.

Azada AYMURATOVA,
safdor.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

TADBIRKORLAR DILIDAGI GAP BO‘LDI

Qariyb 25 yil ichki ishlar organlarida xizmat qilib, el-yurt tinchlik-osoyishtaligini ta‘minlashga ozmi-ko‘pmi hissa qo‘shganimdan faxrlanaman. Mana, 15 yildirki, pensiyadaman. Har doim erta turib, xizmatga oshiqqan odam bemalol, bekorchi bo‘lib qolsa, juda og‘ir botarkan.

Shundan so‘ng rafiqam Maryamxon bilan maslahatlashib, birgalikda imtiyozli kredit asosida Navoiy shahrining Tinchlik qo‘rg‘onida bir gektar yer maydonida issiqxona tashkil etdik. Turkiyalik agronom bilan hamkorlik o‘rnatdik. Mahallaning «Temir daftari»ga kiritilgan 20 nafarga yaqin xotin-qizlar hamda yoshlarni issiqxona ishiga jalb etdik.

2023-yil biz uchun qut-barakali va omadli keldi. Pomidor, bodring va bulg‘or qalampiridan mo‘l hosil yetishtirib, hatto Qozog‘iston hamda Rossiyaga eksport ham

qildik. Joriy yilning «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili» deb e‘lon qilinishi men kabi yurt taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilayotgan tadbirkorlarning dilidagi gap bo‘ldi. Buning uchun muhtaram Prezidentimizdan behad minnatdormiz. Davlatimizning bizga e‘tiboridan ruhanib, joriy yilda issiqxonani bir gektarga kengaytirib, yana ko‘plab mahalladoshlarimizni ish bilan ta‘minlashni maqsad qilib qo‘ydim.

Yangi yilda nafaqat tadbirkorlar, balki yoshlar uchun ham imkoniyatlar eshigi keng ochilishi shubhasiz. Bu yo‘lda biz ularga beminnat ustoz, suyanch tog‘i bo‘lishga, bilim va tajribalarimiz bilan o‘rtoqlashishga tayyormiz. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik va hamjihatlik bardavom bo‘lsin.

Ismoil MAMANAZAROV,
iste‘fodagi podpolkovnik.

Navoiy viloyati.



VATANGA XIZMAT – OLIY FAZILAT

UNING HAYOTDAGI ORZUSI

Iqbola Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida tug‘ilib voyaga yetdi. Ota-onasi besh nafar – uch o‘g‘il, ikki qizni tarbiyalab, ulg‘aytirishgan. Ular orasidan Iqbola egniga ichki ishlar organini xodimi libosini kiyib, sharaflil kasbning egasi bo‘lishni tanladi.

U faoliyatini Yakkasaroy tumani IIBda ish yurituvchi lavozimida boshlagan. Keyinchalik turli sohaviy xizmatlarda faoliyat yuritish asnosida hamkasblari va ustozlaridan bilmaganlarini o‘rganib, tajriba orttirdi.

Hozirda serjant Iqbola Olimova Toshkent shahar IIBB Moliya va moddiy-texnika ta‘minoti boshqarmasi moddiy-texnika va xo‘jalik xizmati kichik inspektori.

Lavhamiz qahramoni turmush o‘rtog‘i bilan uch nafar o‘g‘ilni voyaga yetkazishdi. Oila boshlig‘i



vafot etgach, yolg‘iz boshi bilan ham ro‘zg‘orni, ham xizmatni va farzandlar tarbiyasini birdek olib borishga harakat qilyapti.

To‘ng‘ich o‘g‘li Sherzod Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi. Ikkinchi o‘g‘li Begzod Alfraganus universitetida tahsil oladi. U onasining izidan ketishga ahd qildi. Hozirda hujjatlarini Toshkent shahar IIBBga topshirgan. Uchinchi o‘g‘il Shahzod maktab o‘quvchisi.

Har bir insonning hayotda o‘z orzusi bo‘ladi. Iqbola opaning ham umidi va yashashdan maqsadi farzandlarining kamolini ko‘rish. Bu yo‘lda sohada fidoyilarcha xizmat qilib, bor imkoniyatini farzandlariga sarflamoqda. Dilbandlari esa unga qanot bo‘lish yo‘lida o‘qib-o‘rganib, hayotda o‘z o‘rnini topish harakatida.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.facebook.com/postdauzwww.instagram.com/postda_uz

ЖЕНЩИНЫ В ПОГОНАХ

ЗАДАЧА – РАСКРЫТЬ ПРЕСТУПЛЕНИЕ


Старший следователь ГУВД города Ташкента подполковник Дарья Богданова – опытная сотрудница. Ее по праву называют профессионалом своего дела.

В 2009 году выпускница Академии МВД приступила к служебным обязанностям в следственном отделе при Хамзинском РОВД (ныне УКД ОВД Яшнабадского района). Как у любого молодого специалиста, поначалу были сложности, но Дарья, проявив присущую ей ответственность, быстро адаптировалась и стала успешно применять на практике полученные в вузе знания...

Около 10 лет наша героиня прослужила следователем, затем старшим следователем в следственном звене УКД ОВД Яшнабадского района. В 2018 году подполковник Дарья Богданова продолжила

служебную деятельность в СУ при ГУВД города Ташкента. В данное время она является старшим следователем этого подразделения.

– Современный следователь кроме всего прочего должен иметь солидные познания в компьютерных технологиях, поскольку многие преступления сегодня происходят с использованием информационно-телекоммуникационных средств. Нужно владеть психологическими навыками для проведения очных ставок и других следственных действий, – говорит Дарья Николаевна. – Также нужно не забывать, что следователь



– это тот самый участник уголовного процесса, от которого во многом зависит обеспечение прав потерпевшего и торжество справедливости. Следователь обязан принять все меры для раскрытия преступления.

Безусловно, очень важен правильный настрой, спо-

собствующий качественно-му выполнению возложенных задач. Я люблю свою работу. Когда приходишь в управление и знаешь, что тебя окружают грамотные, знающие люди, служба приносит только удовольствие.

У героини очерка подрастают дочь Варвара и

сын Гордей. Супруг, Сергей Сергеевич, во всем поддерживает Дарью Николаевну. Свободное время семья любит проводить вместе. А как именно – всегда придумывает неординарная, любознательная Дарья.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

КАЖДАЯ СЕМЬЯ – ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ

ПОДАРОК РОДИТЕЛЕЙ

Среди приданого у Малохатхон Хужамбердиевой была простенькая швейная машинка – подарок родителей. С ее помощью хозяйка вначале обшивала мужа, затем и четверых детей. Ей нравилось это занятие. Выкроив время от хлопот по хозяйству, находила возможность шить на заказ.

В один из очередных переездов, связанных с работой супруга, семья поселилась в служебном доме в махалле Шакарбот Узбекстанского района Ферганской области. Узнав о мастерстве портнихи, с заказами начали приходить соседи. К этому времени дети уже подросли и разгрузили маму от домашних дел. Малохатхон всерьез принялась за работу. Вскоре дело пошло так успешно, что требовались дополнительные площади.

– Как раз по соседству пустовал дом, – вспоминает

Малохатхон. – Зародилась идея: расширить возможности, взяв его в аренду. Муж одобрил начинание, отметив, что государство всемерно поддерживает предпринимательство.

Так в махалле появилось предприятие «Kubro Textile», которое основала Малохатхон. В настоящее время здесь трудятся почти три десятка сельских жительниц. Они выпускают до двадцати наименований детского трикотажа. Продукция реализуется на внутреннем рынке и экс-



На снимке: подполковник Абдухалил Хужамбердиев вместе со своей супругой предпринимателем Малохатхон.

портируется в Таджикистан, Кыргызстан, Россию. Потенциал предприятия позволяет строить планы по укрупнению производственной базы.

Недавно «Kubro Textile» посетила группа руководителей во главе с хокимом Ферганской области Хайрулло Бозоровым и начальником областного УВД генерал-майором Азизбеком Икрамовым. Они ознакомились с деятельностью цеха, условиями, созданными для работниц, дали высокую оценку усилиям предпринимательницы.

Глава семейства, Абдухалил Хужамбердиев, родом из кишлака Бешкапа Учкуприкского района. Он 15 лет служит в органах внутренних дел, ныне в звании подполковника. Является старшим инспектором профилактики в махалле Кул Элаш Узбекстанского района. Один из опытных специалистов, наставник многих молодых сотрудников. К нему обращаются за советом по работе, в решении бытовых и семейных вопросов.

Абдусит СИДИКОВ,
соб. корр.
Ферганская область.



ZARAFSHON TOMONLARDA



Cho'l bag'rida joylashgan Zarafshon shahrining sanoati rivojlanayotganligi tufayli aholisi kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu yerda o'zbek, qozoq, rus, tatar va tojik millatlari vakillari ahil-inoq istiqomat qilishadi. Ularning osoyishtaligini ta'minlash esa shahar IIB xodimlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Soha xodimlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'z navbatida, jinoyatlar va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkonini bermoqda. Bugungi kunda shaxsiy tarkib zamonaviy binoda faoliyat olib bormoqda. Keng, yorug' xonalar hamda zamonaviy texnikalar huquq-tartibot posbonlari ixtiyo-

olyapti, – deydi tergov guruhi katta tergovchisi, kapitan Shahrizod Xudoyberdiyev.

O'tgan yili tergov guruhi xodimlari tomonidan 100 dan ortiq jinoyat ishi ko'rib chiqildi. Har bir ishni o'rganish va dalillar yig'ish, turli fe'l-atvordagi fuqarolar bilan suhbatlashib, jinoyatni fosh etishda



rida. Jumladan, so'roq jarayonini stenografiya qilish, shuningdek, tergov harakatlarini audio va video qayd etish tizimlari orqali olib borish uchun maxsus jihozlangan xonalar tashkil etilgan.

– Tergov jarayonida xolislik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida uzoq hududlarda yashovchi tergov ishtirokchilari bilan muloqot video-konferens aloqa orqali amalga oshirilyapti. Bu esa, o'z navbatida, overagarchiliklarning oldini

kapitan Nizom Karimov, leytenant Doston Haydarovning munosib o'rni bor.

Shaharda jamoat tartibini va aholi xavfsizligini ta'minlashda viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni 2-otryadi xodimlarining hissasi katta bo'lmoqda. Ular odamlar gavjum bo'ladigan ko'ngilochar joylarda bezorilik, o'g'rilik, firibgarlik jinoyatlarining hamda janjall holatlarning oldini olish maqsadida muntazam ravishda nazorat tad-



birlari o'tkazib turadilar. Profilaktik targ'ibotlar doirasida esa «Tig'», «Ogoh bo'ling», «O'smir», «Hushyorlik» kabi tadbirlarni tashkil etishyapti.

– Har bir xodim o'ziga biktirilgan hududdagi ko'chalar, savdo markazlari, ko'ngilochar

mas'ul xodimlar faoliyat ko'rsatadi. O'tgan yili olib borilgan targ'ibot ishlari tufayli «Yoshlik» hamda «Yulduz» mahallalarida birorta ham jinoyat sodir etilmadi. Bunda profilaktika katta inspektori, katta leytenant Maqsud Mirzayev hamda profilaktika inspektori,



joylarni diqqat bilan kuzatib turadi. Shu bilan bir qatorda, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan asrash, jamoat joylarida spirtli ichimliklar iste'molidan saqlanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi, – deydi PPX batalyoni 2-otryadi bo'linma komandiri, serjant Nuriddin Ochilov.

Shaharda 15 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, ularda profilaktika inpektorlari hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha

leytenant Javohir Berdiyevning xizmati alohida e'tirofga munosib.

Jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktik ishlar olib borilayotgani, ishsizlarning bandligi ta'minlanayotgani jinoyatchilikning oldini olishda o'z samarasini bermoqda. Spirtli ichimlikka ruju qo'yganlarni sog'lom turmush tarziga qaytarish uchun esa sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlarni tashkil etilmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

VATAN TUPROG'I

Qadim o'zbek botirlari uzoq safarga ketganda bir hovuch Vatan tuprog'ini doim o'z yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o'z tug'ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo'lgan muhabbatini bir nafas ham unuttirmagan. Bu bir hovuch tuproq unga o'z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan, uzoq o'lkalarda bo'lsa ham, uni o'z Vatanida his qildirgan va qayerda bo'lmasin o'z xalqi sha'niga isnod keltirmaslikka, o'z xalqining nomusli va sodiq o'g'li bo'lishga chaqirgan.



Hamid OLIMJON.

YOSHLAR — KELAJAK BUNYODKORI

IQTIDORLI



MASHHURA

Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning bilim va iqtidorini rivojlantirish, o'quvchilarda keng dunyoqarash, sog'lom fikrlash, alohida sharoitlarda vaziyatga to'g'ri baho berish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quv mashg'ulotlaridan keyin tashkil etilgan qo'shimcha fan va sport to'garaklari muntazam yo'lga qo'yilgan. Hozirgacha ellik nafarga yaqin o'quvchilarimiz ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha

milliy va xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritdi.

2-bosqich o'quvchisi Mashhura Olimova ham ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikat (CEFR)ni qo'lga kiritdi. Qolaversa, M. Olimova o'qishdagi muvaffaqiyatlari va a'lo baholarga o'qiganligi uchun Ichki ishlar vazirining ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Dilorom TOSHEVA,
o'qituvchi.

ASKAR MAKTUBI

POSBON BO'LIB ULG'AYDIM, ONA!

Assalomu alaykum, mehribon onajonim. Mana, bir yilga yaqin vaqt o'tibdi, sizdan yiroqda, yigitlik burchimni ado etyapman. Men — sho'x-shaddod o'g'lingiz harbiy maktabga kelib, askar bo'lib ulg'aydim. Bu maktabda juda ko'p narsalarni o'rgandim. Hayotni, yaqinlar qadrini, odamiylik nima ekanligini, mehnat esa kishini toblashini tushundim.



Har bir yigit Vatan oldida qanchalik burchli ekanligini his qila boshladim. Bu yerda radiotexnikaqa uquvim borligi uchun aloqa vositalarini ishga tushirishni ham bilib oldim. Eng muhimi, katta maqsadlar sari olg'a intilishni o'rgandim. Muddatli harbiy xizmatim tugagach, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga o'qishga kirmoqchiman. U yerda yurtning haqiqiy himoyachisi bo'lmoqchiman.

Onajon, tongda turib tayyorlagan nonushtangizni, mehr qo'shib pishirgan mazali taomlarni, sarishta uyimizni, otamni, singlim Durdonani sog'indim. Xizmatdoshlarim bilan xuddi aka-ukaday bo'lib ketganmiz. Ammo, baribir, nimadir yetishmaganday bo'laveradi. Bu — oilamning issiq bag'ri.

Bilaman, tun-u kun bizni o'ylaysiz, duoyi jonimizni qilasiz. Buning uchun sizga ta'zimdaman!

Onajon, siz hamisha: «Yaxshi o'qinglar, ilmi bo'lsangiz, mehnatdan qochmasangiz, albatta, baxtli bo'lib, bizga rahmat keltirasizlar. Yurtimizga xizmat qiladigan insonlar bo'lib katta bo'lasizlar», deb aytardingiz. Bizni doimo odobli bo'lishga, katta-yu kichikka hurmat bilan muomala qilishga undaysiz. Men ana shu nasihatlarimgizga amal qilishga harakat qilyapman. Sizga va otamga rahmat olib beradigan, yurtini himoya qila oladigan mard o'g'lon bo'lishga va'da beraman.

Sanjar TOJIYEV,
IIVga qarashli 7257-sonli harbiy
qism aloqa vzwodi muddatli
harbiy xizmatchisi.



SOHA FIDOYILARI

FUQAROLAR FAOL BO'LSA...

Bektemir tumani IIOFMB 2-IIB hududiga to'rtta – «Iqbol», «Chashma», «Abay» va «Gulbog'» mahallalari kiradi. Aholi soni 11 ming nafardan oshiq. Ichki ishlar bo'limi xodimlari hamda hududda istiqomat qiluvchi faollar va fuqarolar hamjihatligi natijasida uchta mahalla hududida jinoyatchilik kamayishiga erishilib, «yashil» toifaga kiritilgan. Birgina «Abay» mahallasi «sariq» toifada. Hozirda ushbu hududni ham «yashil» toifaga o'tkazish yo'lida sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Fikrimizni «Chashma» mahallasi misolida davom ettiradigan bo'lsak, bu yerda xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlari – kapitanlar Bahrom Chinibayev va Ilhomjon Nig'matovga fuqarolar xuddi o'z tug'ishganidek munosabatda bo'lishadi. Muammolar yoki yechilishi lozim bo'lgan masalalar bamaslahat hal etiladi.

Ma'lumki, ko'pincha qidiruvdagi shaxslar haqida ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolardan «102» raqamiga xabar berishlari so'raladi. Shu bilan bir qatorda, bunday vaziyatlarda ichki ishlar organlari xodimlari har doimgidan-da sergaklik bilan xizmat olib borishadi.

Yaqinda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda gumon qilingan qidiruvdagi shaxs ana shunday hamkorlik natijasida qo'lga olindi. Bunga 2-IIB boshlig'i, mayor Nurjigit Abdurkarimov ham o'z hissasini qo'shdi.

Nurjigit Abdurkarimov o'zi yashaydigan mahalla, unga tutash hududlarning telegram kanallarida telefon raqamini qoldirib, qidiruvdagi shaxs haqida ma'lumot berishlarini so'ragan edi. Bu sa'y-harakat natijasini ko'rsatdi. Mahallaga tutash hududda yashovchi fuqarolardan biri N.Abdurkarimovga qo'ng'iroq qilib, o'zi ishlaydigan issiqxonaga ish so'rab kelgan kimsa qidiruvdagi shaxsga o'xshab ketishini aytadi. Osoyishtalik

posboni zudlik bilan profilaktika inspektorlari – kapitanlar B.Chinibayev va I. Nig'matov bilan birgalikda aytilgan manzilga yo'l oladi.

Ular yetib borishganida, gumon qilingan shaxs issiqxona ichida ikki kishi bilan ishlayotgan ekan. Tabiiyki, xodimlarni ko'rgan gumon qilinuvchi qochishga harakat qilib, faol qarshilik ko'rsatdi. Osoyishtalik posbonlari esa unga hech qanday imkoniyat qoldirmay, gumonqilinuvchini qonun hukmiga topshirishdi.

– Bunda ichki ishlar organlari xodimlariga yaqindan yordam bergan faol fuqarolarning alohida o'rni bor, – deydi hozirda tuman IIOFMB tezkor-qidiruv xizmatida faoliyatini davom ettirayotgan mayor N. Abdurkarimov.

Zero, loqayd bo'lmagan insonlarning sergakligi va ziyrakligi barchaga ibrat namunasidir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Suratda: Bektemir tumani IIOFMB

Tezkor-qidiruv xizmati xodimi, mayor Nurjigit Abdurkarimov hamda profilaktika inspektorlari – kapitan Ilhomjon Nig'matov hamda katta leytenant Umid Abduqodirov.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

Qashqadaryo viloyati



Muborak tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Husan Ulashev firibgarlik xatti-harakati yuzasidan tushgan ariza bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borish jarayonida Alisher Navoiy mahallasida yashovchi fuqaro H.A. chiroqchilik R.A.ning nomiga katta miqdorda kredit mablag'i olgani, o'zlashtirib qaytarishni «unutgani»ni aniqladi.

Dastlab gumonlanuvchi H.A. aybi-ga iqrar bo'ldi. Keyin esa to'plangan hujjatlarni tuman IIB huzuridagi tergov guruhiga o'tkazmaslik va ishni uning foydasiga ijobiy hal qilib berish evaziga kapitan H.Ulashevga 1000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi...

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirida fuqaro H.A. kapitan H.Ulashevga 1000 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan vaqtida ushlandi. Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 211-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Kapitan Husan Ulashev ayni paytda Muborak tumani «Yoshlik» MFY profilaktika inspektori lavozimida mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish maqsadida astoydil harakat qilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

MUNOSABAT

ULKAN MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Yoshlar – mamlakat kelajagi, ertangi kunning davomchilaridir. Bugun jonajon yurtimizda Prezidentimiz rahnamoligida olib borilayotgan izchil islohotlar biz, yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan.

O'tkazilayotgan kitobxonlik tanlovlari, sport musobaqalari, fan olimpiadalari va boshqa ko'plab tadbirlar ming-minglab iqtidorli yoshlarni kashf etayotgani bilan ahamiyatlidir. Quvonarlisi, bu tadbirlarda ichki ishlar organlarining yosh xodimlari ham faol ishtirok etib kelishmoqda. Xususan, ichki ishlar organlarida bo'lib o'tgan «Eng yosh kitobxon» ko'rik-tanlovining hududiy bosqichlarida ko'plab tengdoshlarimizning uyushqoqlik bilan qatnashgani «bugungi yoshlar kitob o'qimay qo'ydi» degan



tushunchaning o'zgarishiga sabab bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

Xizmat faoliyatimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, bunday tadbirlar yoshlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi. Chunki kitob o'qigan, qonunlarni bilgan odam qilmishining oqibatini yaxshi anglaydi.

2024-yilning – «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili» deb nomlanishi zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi, albatta. Shunday ekan, o'qib-izlanishimiz, yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashga, uning ravnaqiga munosib hissa qo'shishimiz talab etiladi.

Gavharoy ABDUMANSUROVA,
Uchtepa tumani IIOFMB 2-sonli IIB surishtiruv guruhi surishtiruvchisi, leytenant.

Toshkent shahri.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

«YASHIL IQTISODIYOT»: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Insoniyat hayoti ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar bilan uzviy bog'liq. Hozirgi kunda, ayniqsa, sanoatning rivojlanishi, tabiiy resurslardan shafqatsizlarcha foydalanish, oziq-ovqat yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi maydonlarining keskin qisqarishi, cho'llanish va suv yetishmovchiligi xalqaro tashkilotlar va davlatlar rahbarlarining, qo'laversa, butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turibdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1972-yil 15-mart kuni Bosh Asambleyaning 1997-rezolyutsiyasiga binoan, atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha UNEP (United Nations Environment Programme) tashkilotini tuzdi. UNEP ekspertlari «yashil iqtisodiyot»ni insonlar hayot darajasini yuksaltiradigan, ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan va shu bilan birga, atrof-muhitning zararlanish xavfini kamaytiradigan faoliyat deb baholaganlar.

Hozir ko'p tilga olinayotgan «barqaror rivojlanish» atamasi BMT shafeligida 1983-yilda atrof-muhit holatini, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish oqibatlarini tahlil etgan maxsus xalqaro komissiyaning «Bizning umumiy kelajagimiz» deb nomlangan ma'ruzasida ilk marta «sustainable development» atamasi sifatida omallashdi.

2009-yilda BMTning «Global yashil yangi kurs» konsepsiyasi atrof-muhit dasturi sifatida taklif etildi. Uning asosiy mazmuni investitsiyalarni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish va rag'batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga, ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energosamaradorlikni ta'minlashga hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishga qaratilgan. 2009-yil iyunda 34 ta mamlakat «Yashil iqtisodiyot» deklaratsiyasini imzoladi va «ham inqirozdan chiqish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar doirasida, ham uning doirasidan tashqarida «yashil o'sish» strategiyalarini joriy etish uchun sa'y-harakatlarni mustahkamlashini, «yashil» va «o'sish» tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liqligini tan olishini» ma'lum qildi.

«Yashil iqtisodiyot» – tabiiy zaxiralarga ta'sir etmaydigan iqtisodiyot bo'lib, uning konsepsiyasi

tabiiy resurslarni asrash va tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirishdir. Inson hayotining o'sishi tabiiy kapital o'sishi bilan barobar bo'lishi darakor. Bunga «yashil o'sish» deyiladi. Uning maqsadi – jamiyat barqarorligiga erishish uchun ekotizimga bosimni kamaytirib, ijtimoiy siyosat, iqtisodiyot va ekologiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. «Yashil iqtisodiyot»ning barqarorlik, adolat va qadr-qimmat, boshqaruv va moslashuv, sog'lom koinot kabi mezonlari; yashil energetika, «yashil iqtisodiyot» va qishloq xo'jaligi, «yashil iqtisodiyot» va transport, «yashil texnologiyalar», «yashil moliya», «yashil iqtisodiyot» va turizm, «yashil iqtisodiyot» va inson kabi aniq yo'nalishlari, shuningdek, «yashil iqtisodiyot» sohasida yetakchi mamlakatlar – Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya kabi rivojlangan mamlakatlarning o'rganishga molik ijobiy tajribalari mavjud.

Mingyillik maqsadlari yakuni ko'rib chiqilgan 2015-yilning sentabrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi tarixiy sammitida qabul qilingan «Barqaror rivojlanish sohasidagi global kun tartibi» bo'yicha 70-sonli rezolyutsiyada iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarda barqaror rivojlanishni ko'zda tutuvchi 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi va ularga bog'liq bo'lgan 169 ta vazifa va 232 ta ko'rsatkich belgilab olingan deklaratsiya qabul qilindi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, BRM dasturi quyidagi global maqsadni o'z ichiga oladi: qashshoqlikni yo'qotish; ochlikni tugatish; sog'liq va farovonlik; sifatli ta'lim; gender tengligi; toza suv va sanitariya; arzon va toza energiya; munosib ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish; sanoatlashtirish, innovatsiyalar, in-

fratuzilma; tengsizlikni kamaytirish; barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish; mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish; iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish; dengiz ekotizimlarini asrash; quruqlikdagi ekotizimlarni asrash; tinchlik, adolat va samarali boshqaruv; barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

2015-yilda O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida global kun tartibini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni qabul qilib, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston sharoitida Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari va rahbarligida BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish faollashdi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

«Yashil iqtisodiyot» – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lishi kerak. Olimlarning fikricha, «yashil iqtisodiyot» nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan «yashil iqtisodiyot»ga o'tish umumjahon trendi bo'lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki umuman butun jahon iqtisodiyoti barqarorligini belgilab beradi, «yashil iqtisodiyot»ni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo'lidir.

Alohida, ta'kidlash joizki, O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining 16 tasida ishtirok etmoqda. Mazkur maqsadlarning yarmiga yaqini – bevosita iqlim o'zgarishi, ekologiya, toza suv va sanitariya, arzon va toza energiya ishlab chiqarish kabi o'ta muhim masalalar xalqaro tashkilotlar va davlatlar hamkorligida dadillik bilan amalga oshirilmoqda. Masalan, yashil energetikaga o'tish strategiyasi bo'yicha 2023-yil oxirida mamlakatimizning qator viloyatlarida Saudiya Arabistoni va Xitoy davlatlari bilan hamkorlikda quyosh panellari stansiyalarining ishga tushirilganligi buning yorqin isbotidir.

O'ylaymizki, bu muvaffaqiyatlar poydevori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr-dagi «2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroridir. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va «yashil» o'sish dasturi maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi, uning maqsadli ko'rsatkichlari, shuningdek, «Sanoat tarmoqlarida «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasi kabi maqsadli muhim hujjatlar ijrosi mamlakatimizning yaqin istiqbolda «yashil iqtisodiyot» ta'minlangan mamlakatga aylantiradi va uning bu sohada Markaziy Osiyoda yetakchilik qilishiga ishonchimiz komil.

Shuhrat G'OYIBNAZAROV,
siyosiy fanlar doktori, professor,
iste'fodagi polkovnik.



СИЗ КЎТГАН УЧРАШУВ

«БУ ЖУДА ҚЎРҚИНЧЛИ ЎЙ»

Саид Мухторов «18-квадрат» ҳақидаги саволдан нега чўчиди?

Ўзбек кино саноатида турли йилларда «Ҳақиқий эркалар ови», «Ҳаёт-мамот», «Жасур», «Алданган аёл», «Сотқин», «Тузоқ», «Ҳаёт», «Ажал жодуси», «Таҳдид», «Бурч ва муҳаббат», «Ёлгон гирдоб», «Гумроҳлар», «18-квадрат» сингари воқеалар ривожини мураккаб ва долзарб масалалар очиб берилган кўплаб фильмлар яратилган. Уларда гийҳвандлик, уюшган жиноятчилик, миссионерлик, экстремизм ва терроризм каби иллатларнинг жамият учун хавфи жиҳатлари кўрсатилган. Юрт осойишталиги йўлида жон фидо қилган мардлар ёдга олинган.

Биз санаб ўтган рўйхатда «18-квадрат» фильми алоҳида аҳамиятга эга. Бугун миллионлаб телетомошабинлар меҳрини қозонган мазкур кино асарида ички ишлар органлари ходими (майор Тошбой Пўлатов, яъни Тош) ролини ижро этган актёр, продюсер ҳамда режиссёр Саид Мухторов билан ана шу фильм ҳақида суҳбатлашамиз.

– Саид ака, дастлаб ушбу бадиий фильмнинг тасвирга олиниш жараёнлари, қийинчиликлар, ғоявий жиҳатлари тўғрисида гапирсангиз.

– Фильмнинг дунёга келишида сценарий муаллифидан ташқари, ички ишлар ва Мудофаа вазирликлари билан ҳамкорлик жуда муҳим бўлган. Тасвирга олиш ишлари, плёнкада амалга оширилган. Бу катта машаққат талаб этарди. Аммо шуни алоҳида таъкидлаш керакки, «18-квадрат» фильми терроризмга қарши кураш бўйича ишланган Марказий Осиёдаги илк катта муваффақият қозонган ижод намунаси сифатида баҳоланди. Асосий мақсад халқимизни экстремистик ғоялар хавфидан тушунарли тарзда огоҳлантириш, ҳушёрликка чорлаш, тинчлик бебаҳо бойлик эканлигини аҳоли онгига кино орқали сингдириш эди.

Тан олиш керак, ўша даврда ҳар томонлама таҳдидлар бисёр бўлган. Юрт посбонлари кечаю кундуз осойишталик учун курашган. Ҳаётини хавфга қўйиб, жон фидо қилганларини эшитганмиз. Агар улар бўлмаганида, тотувлигимизга раҳна солинарди.

– Фильмдаги сюжетлар бир савол устига қурилган дейишимиз мумкинми?

– Сюжетнинг оддий деталларига эътибор қаратилган. Босқинчилар ҳам анойи бўлмаганлигини, аниқ режа билан ҳаракат қилганликларини дарров пайқайсиз. Мендан ном ҳақида ҳам кўпчилик сўрайди. «18 квадрат» – бу душманга қарши операция ўтказилган манзил, яъни кинофильмда ғанимлар билан асосий тўқнашув бўлган жой. Эътибор берган бўлсангиз, ҳарбийлар «Биз 18-квадратга қараб кетяпмиз» деган иборани ишлатган. Бу ўзларининг тилида географик жойлашувдан келиб чиқиб номланган нуқта.

– Ойлаб тоғу тошларда съёмка жараёнлари, қурооллар, ҳарбий техникалар... Ҳозир ўша хотираларни ёдга олиш бошқача бўлса керак. Охириги йилларда кўп кинофильмлар яратилди, лекин нега «18-квадрат» каби сеvimли бўлолмаяпти?



– Тўғри. Ҳар бир лаҳза соғинч билан эслашга арзийди. Суратга олиш борасида тўхталадиган бўлсам, Тошкент вилоятидаги Бурчмулла, Оқтош ҳудудлари, Чорвоқ сув омбори атрофидаги жойлар танланган. Олти ойдан ортиқ вақт давомида тоғу тошлар ичида, совуқ об-ҳавода мураккаб ижодий жараёнлар кечган.

Сиз айтганингиздек, бу жанрда бир қанча кинофильмлар ишланди. «18-квадрат»чалик машҳур бўлолмаслигига сценарий ва режиссурадаги камчиликлар, актёрларнинг нотўғри танланиши каби кўплаб омиллар сабаб, деб ўйлайман. Бундан ташқари, биз ўйнаган ҳар бир эпизод мукамал чиқилишига алоҳида эътибор берилган. Бо-

римизни профессионал ижрога қаратганмиз. Маблағ, ҳарбий техникалар, жанговар вертолётлар, қурооллар аялмаган. Етук санъат вакиллари жалб этилган. Таъминот томонлама узилиш бўлмаган. Шунга монанд равишда эътибор, эътироф йиллар ўтса-да, ортса ортадики, қамаймайди.

– Кулгили ибораларни кўп ишлатгансиз. Табиийлик яққол сезилиб туради. Бунга нималар ундаган?

– Фильмдаги ички ишлар органлари ходими ва ҳарбийларнинг бир-бирига қилган ҳазиллари, муносабатлари, тортишувлари ҳамда киноялари жуда ҳаётий чиққан. Сценарий муаллифининг маҳорати, даражаси юқори эди-да. Биринчи жиҳат шу. Кейин менинг шеригим, укам, фильм режиссёри Жаҳонгир Қосимовнинг ўғли, кичик сержант Зиёдов (Жавоҳир Қосимов) билан кулгили ҳодисалар бўлган. Бўйи икки метр, бақувват йигит. У ёрлардаги тўйнуқларга сиғмаганда «қотиб» қолганмиз. Чунки ҳамма қийналмай ўтарди. Унга келганда эса... Хуллас, ёдингизда бўлса, «18-квадрат»да: «Зиёдов, эшикка сиғмасанг, тешикка сиғмасанг» деб айтган гапларим бор. Бу бекоргамас-да. Қўполлигидан, снайпер милтиғи билан каминанинг бошига уриб юборган жойлари бор кинода (кулиб).

– Ёнингизда елкама-елка турган «Зиёдов» профессионал актёрми?

– Ўн ёшидан буён танийман уни. Лифтга қамалиб қолган пайтлари бўлган реал ҳаётда. Бориб очиб берганмиз. Жуда тартибли, одобли бола эди ёшлигидан. Дебют роли айнан мана шу фильмга тўғри келган. Дастлабки уринишидаёқ жуда

муваффақиятли ўйнади, дейишим мумкин. Сценарий ўзига жуда мос тушган. Тинчлик фарзанди сифатида ажойиб бир эпизоди бор. У автоматини кўчада олиб юришга уялишини айтади. Уруш кўрмаган, меҳрибон ходим. Бунинг тағамида катта маъно яширинган.

– Тасаввур қилинг, актёр сифатидаги карьерангизда биз суҳбатлашаётган фильм йўқ бўлганида...

– Қўрқинчли. Бу жуда қўрқинчли ўй. «Лафз», «Иймон», «Боғ», «Чимилдиқ», «Етти ҳайкал битта кал» «Севгинатор»да ўйнаганман. Шунингдек, «Фарёд», «Фарёд 2», «Тавба», «Кулба», «Осий банда», «Шаббона», «Маржона», «Васият»,

Маълумот ўрнида

«18-квадрат» фильми терроризмга қарши курашда ҳалок бўлганлар хотирасига бағишланиб, 2007 йилда премьераси бўлиб ўтган. Сценарий муаллифи – ёзувчи, жамоат арбоби Мурод Муҳаммад Дўст. Режиссёр Жаҳонгир Қосимов. Саундтрек сифатида Севара Назархоннинг «Улуғимсан Ватаним» қўшиғидан фойдаланилган. Унда Саид Мухторов, Тоҳир Саидов, Жавоҳир Қосимов, Карим Мирходиев, Абдухалил Мингноров, Обид Асомов, Бахтиёр Қосимов, Абдувоҳид Зоҳидов, Муяссар Бердикулова, Абдураим Абдуваҳобов, Фатхулла Маъсудов ва бошқалар қатнашган.



«Чаллари», «Оқпадар», «Чапани куёв», «Рашк», «Отасининг қизи», «Девона фаришта», «Афандининг беш хотини», «Ковуш» каби турли жанрлардаги фильмлар ва «Дуо» кўп қисмли сериалнинг муаллифи, режиссёри бўлишдан ташқари, баъзиларида актёр сифатида ҳам иштирок этганман. Бироқ менинг карьерамдаги энг муҳим бурилиш нуқтаси бўлган ёрқин фильм айнан «18-квадрат» деб иккиланмай айта оламан. Энг қадрли. Бебаҳо. Айнан шундай. Катта жанрдаги жанговар ҳаракатлар устига қурилган кинода асосий ролда бўлганимдан фахрланаман. Ватанинг ҳақиқий содиқ ўғлонини гавдалантириб беришдек бахт насиб қилганидан бахтиёрман. Бошқа таърифлар ортиқча деб ўйлайман.

– Суҳбатимиз якунида 14 январь – Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан тилакларингиз...

– Ватанимизнинг эр йигитлари омон бўлишсин. Яқинлашиб келаётган байрам билан чин юракдан табриклайман. Улар борки, тинчлик бор. Масъулиятли вазифаларида улкан муваффақиятлар тилайман.

Аброр ПОЁНОВ
суҳбатлашди.



«ЗЕЛЕНАЯ» ЭКОНОМИКА – ОСОБЕННОСТИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ

По инициативе главы нашего государства пять лет назад начаты масштабные работы по коренному реформированию энергетического сектора страны. Поставлены перспективные цели и задачи по развитию возобновляемых источников энергии (ВИЭ), в законодательство внесены изменения, направленные на создание прочной правовой базы в сфере энергетики, основанной на принципах рыночной экономики. Отказавшись от административно-командных механизмов и монополии в этой важной отрасли, Узбекистан перешел к современному управлению, открытой и прозрачной системе, созданы благоприятные условия для привлечения в сферу частного сектора и зарубежных компаний.



Дмитрий РАХМАНОВ,
главный научный сотрудник
Института парламентских
исследований при
Законодательной палате
Олий Мажлиса.

Утверждена Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период до 2030 года. Осуществляются меры по повышению показателей энергоэффективности, развитию ВИЭ, обеспечению надежного энергоснабжения.

ключены к сети мощности пяти солнечных фотоэлектрических станций в Самаркандской, Джизакской, Сурхандарьинской, Бухарской и Кашкадарьинской областях, а также ветряной электростанции в Навоийской области.

Новые проекты реализуются за счет прямых инвестиций на основе государственно-частного партнерства. Произведенные ими 6 миллиардов киловатт электроэнергии в

этого необходимы стабильные энергоресурсы.

Согласно подсчетам, в следующие 6 лет ожидается рост потребности в электроэнергии в нашей стране с нынешних 83 миллиардов до 120 миллиардов киловатт-часов. Эта потребность в первую очередь будет покрыта за счет ресурсов возобновляемой энергии.

Достижение поставленной цели возможно лишь путем стимулирования и развития «зе-

проведенной в минувшем году работе и запланированных на текущий год мерах по реализации инвестиционной политики и увеличению доли возобновляемых источников в энергетике. В частности, в нынешнем году запланировано довести общую мощность солнечной энергии до 2,6 гигаватта, ветряной – до 900 мегаватт, запустить устройства для хранения энергии мощностью 400 мегаватт.

Для обеспечения стабильной работы электроэнергетической

системы глава государства поручил разработать концепцию развития электросетей. Поставлены задачи по модернизации существующих сетей, строительству подстанций и линий передачи, внедрению автоматизированных предо-

“ В КОНЦЕПЦИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИЕЙ НА 2020–2030 ГОДЫ СОДЕРЖИТСЯ ОТВЕТ НА ГЛАВНЫЙ ВОПРОС – КАК ЛИКВИДИРОВАТЬ ЭНЕРГОДЕФИЦИТ. В НЕЙ ЧЕТКО ОБОЗНАЧЕНЫ ЗАДАЧИ И МЕХАНИЗМЫ ДОСТИЖЕНИЯ НАМЕЧЕННЫХ ЦЕЛЕЙ. ДАННЫЙ СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ДОКУМЕНТ ПРЕДУСМАТРИВАЕТ УВЕЛИЧЕНИЕ К 2030 ГОДУ ДОЛИ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ В ОБЩЕМ ЭНЕРГОБАЛАНСЕ СТРАНЫ ДО 11%. ИЗ НИХ 5% БУДЕТ СОСТАВЛЯТЬ СОЛНЕЧНАЯ, 3,8% – ГИДРОЭНЕРГЕТИКА, 3% – ВЫРАБАТЫВАТЬСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВЕТРА.

Возобновляемые источники энергии – совокупность природных ресурсов, длительная эксплуатация которых не оказывает существенного влияния на дефицит этих ресурсов, их возобновление происходит в короткие сроки. Из ВИЭ, к которым относятся ветер, солнечный свет, вода, геотермальные источники и др., производится «зеленая» энергия.

Реформирование отрасли было начато с консультаций с ведущими специалистами Всемирного банка, Азиатского банка развития и Азиатского банка инфраструктурных инвестиций, Европейского банка реконструкции и развития. Детально изучены возможности развития солнечной, ветряной и гидроэнергетики в стране, созданы карты наиболее эффективных регионов.

В минувшем году были под-

год сэкономят 2 миллиарда кубометров природного газа, 2 миллиона домов будут обеспечены непрерывной и гарантированной электроэнергией.

Почему это важно?

Производство электроэнергии традиционными методами приводит к серьезному загрязнению окружающей среды в виде выбросов в атмосферу огромного количества парниковых газов. Разрушительные последствия данного явления мы наблюдаем в виде ухудшения качества воздуха. При этом основная цель – кратное увеличение объемов промышленности, развитие металлургии, нефтехимии и машиностроения до 2030 года. Также запланирована реализация более 500 крупных промышленных и инфраструктурных проектов общей стоимостью 150 миллиардов долларов США. Для

“ КАК ПОДЧЕРКНУЛ ПРЕЗИДЕНТ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ, «КОЛОССАЛЬНАЯ РАБОТА, КОТОРУЮ МЫ ОСУЩЕСТВЛЯЕМ СЕГОДНЯ, ЯВЛЯЕТСЯ ОЧЕРЕДНЫМ ПРАКТИЧЕСКИМ ШАГОМ В РЕАЛИЗАЦИИ МАСШТАБНЫХ РЕФОРМ В ОТРАСЛИ. ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНО ПРОДОЛЖИВ ИХ, МЫ ПОЭТАПНО ПЕРЕЙДЕМ К МЕХАНИЗМАМ КОНКУРЕНТНОГО РЫНКА. В ЧАСТНОСТИ, НЕДАВНО В ЭТОМ НАПРАВЛЕНИИ МЫ ПРИНЯЛИ ВАЖНОЕ РЕШЕНИЕ О СОЗДАНИИ РЕГУЛЯТОРА РЫНКА ЭНЕРГЕТИКИ. В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ РАБОТАЕМ НАД ПРОЕКТАМИ ПО СТРОИТЕЛЬСТВУ В СТРАНЕ 22 СОЛНЕЧНЫХ И ВЕТРЯНЫХ ЭЛЕКТРОСТАНЦИЙ МОЩНОСТЬЮ 9 ГИГАВАТТ. ВМЕСТЕ С ТЕМ, АКЦЕНТИРУЕМ ВНИМАНИЕ НА ДАЛЬНЕЙШЕМ УЛУЧШЕНИИ ИНФРАСТРУКТУРЫ ДЛЯ ПОСТАВКИ НОВЫХ ГЕНЕРАЦИОННЫХ МОЩНОСТЕЙ».

ленной» энергетики. Для этого руководством страны осуществляется целенаправленная деятельность по доведению доли получения электроэнергии за счет источников «зеленой» энергии до 27 гигаватт.

Немаловажно, что альтернативные источники энергии оказывают положительное влияние на экологию. Динамика в данной сфере придает импульс развитию других отраслей промышленности и сервиса.

2 января 2024 года Президент ознакомился с презентацией о

систем, систем цифрового управления, увеличению доли резервных мощностей. Дано указание изучить возможность внедрения на основе международного опыта агровольтаики – практики установки сельскохозяйственными производителями солнечных панелей на полях.

Узбекистан прочно становится на путь «зеленой» экономики, так же как это делают другие страны мира, стремящиеся найти новые, экологичные, выполняемые источники энергии.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

YURTINI QO'RIQLAR YIGITNING MARDI

Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida tug'ilgan Hamidullo professional harbiy xizmatchi bo'lish maqsadida Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahsil oldi. Yosh ofitser dastlab 64505-harbiy qismda qo'riqlash vzvodi komandirining o'rinbosari lavozimida xizmat faoliyatini boshladi. Bu yerda ustoz, podpolkovnik Husan Qoriyevdan soha sirlarini qunt bilan o'rgandi. Shuningdek, zimmasidagi vazifalarni bajarishda, buyruq va ko'rsatma talablariga rioya etishda safdoshlariga o'rnak bo'ldi. Kasbiga mehr, burchiga sadoqati tufayli ko'p o'tmay ijobiy yutuqlarga erishdi.

O'ziga xos tajriba va mahoratga ega bo'lgan katta leytenant Hamidullo Sultonov keyinchalik IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarda qo'riqlash vzvodi komandiri, shtab katta ofitseri lavozimlarida samarali xizmat qildi.

Ayni kunda u IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli 7260-harbiy qismda shtab boshlig'ining o'rinbosari lavozimida xizmatni davom ettirmoqda.

Lavhamiz qahramoni harbiy qismning tajribali murabbiylaridan biri

sifatida kichik serjantlar Zuxriddin Zaripov, Azamat Matniyozov, Baxtiyor Nazariyev, III darajali serjant Qayrullo Artiqov singari ko'plab harbiy xizmatchilarga ustozlik qilmoqda.

Har bir oila sog'lom muhit, mehr va e'tibor tufayli baxtli koshonaga aylanadi. Bunda oilada farzandlar komil

inson bo'lib voyaga yetadi. Hamidullo ham turmush o'rtog'i Layloxon bilan tinch-totuv hayot kechirib, farzandlari Malika, Temurbek hamda Solihani chinakam yetuk insonlar etib tarbiyalashga astoydil harakat qilishyapti.

Mayor Hamidullo Sultonov harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan

intensiv sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, «Dovyurak jangchi» nishoni bilan taqdirlangan.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



INSON ULUG', XOTIRA MUQADDAS

OTA IZIDAN

Insonlar borki, qisqa umr ko'radi. Ana shu umri ibratli va mazmunli hayoti bilan kelgusi avlodga har tomonlama o'rnak bo'ladi. Ular yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi. Ona Vatanga kelgan har qanday xavf-xatarga ko'ksini qalqon qiladi. Ne'matjon Rahimov ana shunday fidoyi, vatanparvar insonlardan biri edi.



Namangan viloyatining Pop tumanida Rahimovlar oilasini ko'pchilik yaxshi biladi. Umr yo'ldoshi Gulshanoy opa bilan 5 nafar farzandni tarbiyalab, kamolga yetkazgan Ne'matjon Rahimov hayotda o'zidan yaxshi nom qoldirdi. U Pop tumani IIB HOOB voyaga yetmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish guruhi inspektori lavozimida xizmat qilib, hamkasblari orasida hurmat qozongan edi.

Katta leytenant N.Rahimov 2006-yilning 30-may kuni xizmat olib borayotgan vaqtida jinoyatchi tomonidan yetkazilgan tan jarohati oqibatida halok bo'lib, Prezidentimiz farmnoga ko'ra, o'limidan so'ng «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

Ne'matjon Rahimovning shonli yo'lini farzandlari, shogirdlari davom ettirmoqda.



To'ng'ich farzandlari Nizomjon va Nazirjon uzoq yillar yong'in xavfsizligi xizmatida faoliyat yuritib, pensiyaga chiqqan. Uning yana bir o'g'li Ravshanjon esa hozirgi kunda Uchqo'rg'on tumani IIB JQB katta

molini, ular erishayotgan yutuqlarni ko'rib quvonadi.

Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

SIPOH SAQLAB
TURISH TUZUKI

Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko'rgan, jang-u jadal bilan suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasi o'z roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlariga sardor qilib, otini o'nboshi deb atasinlar.

O'n nafar o'nboshi jam bo'lsa, o'z ichlaridan eng ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib, tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar.

Agar o'n yuzboshi yig'lsa, amirzodalardan aqlli, shijoatli, bahodir bir kishini amir etib saylab, uni mingboshi desinlar va amiri hazora deya murojaat qilsinlar.

Agar qaramlaridagi biron kimsa o'lsa yoki qochib ketsa, o'rniga yangi kishini tayinlash o'nboshilarning ixtiyorida bo'lsin. Shunga o'xshash yuzboshilar o'nboshilarni, mingboshilar yuzboshilarni tayin qilsin. Bulardan o'lgan, qochgan, yangi tayinlanganlar bo'lsa, sabablarini aytib, mening arzimga yetkazsinlar.

Yana buyurdimki, urush kunlarida va saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshiniki o'nboshiga, o'nboshiniki (esa) qo'l ostidagilarga joriy etiladi. Agar bu tuzukka qarshilik qilsalar jazoga tortilsinlar. Agar urush ishlarida kim kamchilikka yo'l qo'yar ekan, uni chetlatib, o'rniga boshqani qo'ysinlar.

«Temur tuzuklari» kitobidan olindi.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

MENING QAHRAMONIM

DADAM – FAXRIM

IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Toshkent viloyatida joylashgan 7535-harbiy qism nazoratchilar vzvodi guruh komandiri, III darajali serjant, «Qo'shin a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi Nurxon Xolmo'minov 17 yildan buyon harbiy sohada. O'tgan yil Chirchiq shahridan uch xonali xonadonning kaliti unung oilasiga topshirilib, 25 foiz miqdoridagi dastlabki to'lov imtiyozli ravishda o'tkazib berildi. Bu kabi rag'batlar uning fidoyilik bilan qilgan xizmatlariga berilgan munosib bahodir. Quyida u haqda o'g'lining dil so'zlari bilan tanishasiz.



– Har kuni dadamning ishdan kelishlarini intizorlik bilan kutardim. Ular kelishi bilan, xizmat kiyimlarini ustimga kiygancha, onam va ukalarimga qarab: «Qaranglar, askar kelyapti», degancha ularning oldidan o'zimcha shaxdam qadamlar tashlab o'tardim. Onam esa: «Hoy askar, shapkangni teparoqqa ko'tar, bo'lmasa, ko'zing to'silib,

yiqilib tushasan», deya kulardilar. O'shanda taxminan, 6–7 yoshlarda edim...

Dadam bir kuni meni harbiy qismdagi qasamyod qilish marosimiga olib bordilar. Askarlarning jarangdor ovozda ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishga va'da berishini hamda saf maydonidan

shaxdam qadamlar bilan o'tishini ko'rib, harbiylikka bo'lgan havasim yanada ortdi. Shu zahoti qalbimdagi quvonchni yashira olmasdan, dadamga qarab: «Men ham katta bo'lsam, albatta harbiy bo'laman» deb hayqirdim. Bu gapimni eshitgan atrofdagilar esa chapak chalib yuborishdi. O'shanda dadamning ko'zlari-

dan sevinch yoshlari halqalangan edi.

Mana, to'rt yildan beri karate bilan muntazam shug'ullanib kelaman. Chunki bo'lajak Vatan himoyachisi uchun jismoniy jihatdan baquvvatlik, chiniqish zarur. Qolaversa, qadrdon oilamizning barcha a'zolari sportga oshno tutinib, doimiy tarzda harbiy qismda o'tkaziladigan turli musobaqalarda sovrindorlar safidan joy olib keladi.

Mehribon onajonim Gulbonu Sayfiyeva uy bekasi. Hozirda uch yoshli ukam Imronbekni parvarish qilib kelmoqdalar. O'zim Chirchiq shahridagi 7-sonli maktabning 6-sinfida o'qiyman, ukam Shohrux esa 4-sinfida tahsil oladi.

Oilamizni jonidan ortiq ko'radigan dadajonim xizmatdan ortib, biz uchun ham vaqt ajratib, kelgusidagi rejarimiz bilan qiziqadilar. Shuningdek, bu borada o'zlarining qimmatli maslahatlarini beradilar. Bundan tashqari, bizlarni tarixiy obidalariga, muqaddas qadamjolariga olib boradilar. Men dadam bilan faxrlanaman, kelajakda u kabi Vatan himoyachisi bo'laman.

Shohjahon HUSANOV.

Toshkent viloyati.

SOHAVIY XIZMATLARDA

AYOL QIYNALMASIN EKAN

– deydi Angor tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Dilafruz Xo'jamberdiyeva

■ Er ishsiz, oilada yetishmovchilik bo'lsa, muammoning asosiy yuki uy bekasi zimmasiga tushadi. Ota ishda, bolalarning tarbiyasi bilan ona shug'ullanadi. Bog'cha bo'lmasa, maktabda ta'lim yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, yana onaga muammo tug'iladi. Suv, gaz, elektr ta'minoti yaxshi bo'lmasa, eng ko'p qiynaladigan ham ayol. Maishiy turmushdagi hamma qulaylikni ham, noqulaylikni ham birinchi bo'lib o'z hayotida his etadigan zot bu – ayol.

Angor tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Dilafruz Xo'jamberdiyeva imkon qadar o'ziga yuklatilgan vazifani ado etib kelayotir. Bu yerda ham xotin-qizlar muammolari mas'ul tashkilotlar vakillari, mahalla faollari bilan birgalikda «xonadonbay» o'rganilib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

– 2023-yili 81 nafar xotin-qizga 91 ta himoya orderi rasmiylashtirib berildi, – deydi katta inspektor, katta leytenant Dilafruz Xo'jamberdiyeva. – Xotin-qizlar huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilgan holda

28 ta oila yarashtirildi, yana 62 tasining nizosi bartaraf etildi. Probatsiya guruhi hisobidagi 18 nafar xotin-qiz bilan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida 8 nafarini muddatidan oldin hisobdan chiqarilishiga erishildi. Bu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik 25 foizga kamaydi.

Tumandagi monomarkazda ko'plab xotin-qizlar kasb-hunar sirlarini o'rganib, bugungi kunda ularning aksariyati tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan. Ham o'zini, ham mahalladoshlarini ishli qilayotgan xotin-qizlar talaygina. Albatta, bu oilalardagi farovonlikni ta'minlash bilan birga, nizolarga ham barham berayotgani quvonarlidir.

...Marjona turmushga chiqqanidan so'ng kelinlik uyidagi odatlarga biroz ko'nikolmadi. Qanchalik harakat qilmasin, qaynonasining ko'nglini topolmadi. Bu holat turmush o'rtog'i bilan munosabatlariga ham ta'sir qilmay qolmadi. «Yaxshi bo'lib ketar» ilinjida yashab yurdi. Farzandli ham bo'ldi. Ammo ahvol battarlashdi. Eri Odil qaynona-kelinning tortishuvlaridan bezib, ichkilikka berildi. Ishini ham tashladi. Yetishmovchilik esa nizolarni yanada kuchaytirdi. Yomoni, Odil Marjonani uradigan odat chiqardi. Sabr kosasi to'lgan ayol xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorga murojaat



qilgach, unga himoya orderi berildi. Shundan keyin ahvol biroz o'nglandi.

– Oilani saqlab qolish oson ish emas. Bunga har ikkala tomonning ham munosabati ta'sir qiladi, – deydi katta leytenant Dilafruz Xo'jamberdiyeva. – Biz imkon qadar murosa yo'li bilan nizolarni bartaraf etishga harakat qilamiz. Ba'zi hollarda o'zini haq deyishdan nariga o'tmaydiganlarning ortiqcha harakatlarini esa qonun yo'li bilan cheklashga majbur bo'lamiz. Harhol-da, bu nizolarning biroz bo'lsa-da, kamayishiga yordam beradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



«ТЕМУРБЕКЛАР МАКТАБИ»

ЗНАНИЕ ЯЗЫКОВ – КЛЮЧ К ПОЗНАНИЮ МИРА

Владение языками существенно расширяет возможности личности, открывает доступ к новым источникам знаний. В условиях

глобализации это непереносимое условие для прогресса и налаживания взаимопонимания на уровне народной дипломатии.

Настоящим сподвижником русского языка можно назвать старшего преподавателя Нукусского военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби» МВД Узбекистана Ольгу Утемурадову.

Несмотря на то, что родители Ольги, Виктор Утемурадов и Прасковья Самарцева, были инженерами-строителями, в семье почитали литературу. Имелась богатая библиотека. Это обусловило пристрастие дочери к книгам. Мечтала стать военнотруженицей.

После окончания Каракалпакского государственного университета работала преподавателем русского языка и литературы в нукусской школе № 34. В это же время подала заявление в военкомат. После сбора необходимых документов, медицинского осмотра и прохождения

комиссии, ее направили в военный гарнизон Нукуса, определив в батальон связи. Здесь она познакомилась с будущим супругом, Дмитрием Пантюшенко.

С сентября 2022 года героиня очерка работает в лицее.

Благодаря стараниям О. Утемурадовой в международном конкурсе «Тотальный диктант-2019» приняли участие свыше тысячи каракалпакцев. В качестве поощрения организаторы пригласили ее в Москву, где она представляла нашу страну.

– Вместе с коллегой, Гулнар Сейтназаровой, прививаем любовь к русскому языку, стремимся улучшить навыки учащихся, – говорит Ольга Викторовна. – В памятном конкурсе «Очей очарование» вместе со мной до финала дошли два моих

ученика. В итоге Бердак Узакбергенов стал лауреатом приза зрительских симпатий, а Жасур Умаров занял второе место среди конкурсантов моложе 25 лет. Мне посчастливилось стать победителем среди участников старшего возраста.

В нынешнем учебном году Данияр Жумабаев занял первое место в международном конкурсе «Великий Сталинград: наша история, наша память», участвовал в презентации, состоявшейся в Волгограде. Алпамис Багдияров в онлайн режиме участвовал в конкурсе среди стран СНГ «Мои классные стихи».

Вот такой энтузиаст работает в военно-академическом лицее, помогая своим подопечным овладеть востребованным языком.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика Каракалпакстан.



Жасур УМАРОВ:

– Родом я из Чимбайского района. После окончания школы поступил в Нукусский военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» МВД Узбекистана. Базовые знания стали хорошей основой для меня. По настоятельному совету наставников принял участие в международном конкурсе. Согласно условиям предварительно написал эссе об исторической достопримечательности в Тупраккала. Через некоторое время пришло приглашение из России для участия в финальном этапе конкурса. В итоге занял второе место.

Обрел новых друзей из разных стран. Так как мы прибыли туда в форме учащихся военно-академического лицея, то привлекали большое внимание, были желающие сфотографироваться на память, расспрашивали об Узбекистане, по достоинству оценили наши знания.

Хочется обратить внимание, что в лицее созданы все условия для изучения и других иностранных языков. Это



дает возможность не только получать глубокие знания, но и выступать на конкурсах международного уровня.

Бердак

УЗАКБЕРГЕНОВ:

– Учусь на втором курсе Нукусского военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби». Увлекаюсь игрой на гитаре.

Участвовал в 2022 году в конкурсе в Нижнем Тагиле. Мое выступление было тепло встречено жюри. По их просьбе спел на каракалпакском и узбекском языках.

Довелось дать интервью российскому телевидению, в котором с гордостью рассказал о созданных в Узбекистане для молодежи широких возможностях, поведал о своем лицее. Надеюсь, что учеба в нем позволит накопить знания



для поступления в Университет общественной безопасности.

Организованное по инициативе главы государства наше учебное заведение играет важную роль в духовном и физическом воспитании молодого поколения. Здесь ведут свою деятельность высококвалифицированные преподаватели, которые дают глубокие знания.

Мы успешно участвуем в различных олимпиадах и занимаем почетные места.

Благодарен главе государства за внимание к нашему учебному заведению, где созданы все необходимые условия для полноценного обучения и воспитания будущих защитников Родины.



PANJARA ORTIDAGI HAYOT

Yaqin odaming shifoxonaga tushibdi degan gap qalbingni muzlatib yuborsa, do'sting qamoqqa olinibdi degan xabar kishi ruhiyatiga undan-da qattiq ta'sir qiladi. IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududiga qarashli Xovos shaharchasidagi 8-son tergov hibsxonasiga kirib borar ekanman, xayolimdan mana shunday fikrlar o'tdi. Hibsxona darvozasi oldida bir qancha odamlarga ko'zim tushdi. Bolali ayollar, otaxonlar qo'lidagi sumkalarini kiraverishdagi yuklarni qabul qilish joyiga topshirishayotgan edi. Kattalarning yuz-ko'zida tashvish zohir. Bolalar esa qayerga kelganliklarini tushuna olmay hayron...

FUQAROLAR DARDIGA QULOQ TUTIB

Kiraverishda meni kutib olgan navbatchilarning sichkov nigohidan uyali telefonim, hatto hamyonim ham chetda qolmadi. Tushunsa bo'ladi. Tartib va talab barchaga birday taalluqli.

Darvozadan o'tishim bilan hovlida tergov hibsxonasi boshlig'i vazifasini vaqtincha bajaruvchi, mayor O'rol Xolmatovning fuqarolarning murojaatini tinglayotganiga guvoh bo'ldim. Yoshi ancha o'tib qolgan onaxon hibsxonada saqlanayotgan farzandi haqida so'rab-surishtirdi. Olib kelgan narsalarini o'g'liga yetkazishda yordam so'radi.

Mayor O'rol Xolmatov onaxonni tinchlantirib, iltimosga hojat yo'qligini, qonun doirasida uning farzandiga buyumlarni kiritishi mumkinligini tushuntirdi. Ularning suhbatidan shuni angladimki, onaxonning o'g'liga nisbatan yaqinda sud hukmi chiqarilgan. Lekin advokat apellyatsiya tartibida shikoyat ariza kiritgan. Shu sababdan u hibsxonada vaqtinchalik saqlab turilibdi.

JONKUYAR XODIMA


Ichkariga kirganimizda bizni istarali xodima kutib oldi. Safdor Regina Kabakina tartibot va qo'riqlash bo'limi nazoratchisi vazifasida ishlarkan. U mahbuslarni qabul qilish, joylashtirish, oila a'zolari bilan uchrashuvini tashkil etish, oilasi yuborgan jo'natmalarni yetkazish kabi vazifalarni bajarishda anchagina jonkuyar ekan. Ayniqsa, qonun

doirasida ayol mahbuslarga qilayotgan muomalasi barchaga manzur kelibdi. Ayol qalbini ayolchalik hech kim tushunmaydi. Uning chin qalbdan bildirgan tavsiyalari ularning aksariyatiga ma'qul kelganidan, xotin-qizlarning tartib-intizomida ijobiy siljishlar kuzatilayotgan ekan.

SHAXSIY TARKIB DOIM SHAY

Tergov hibsxonasi boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Jonibek Jo'rayev o'z kasbining fidoyilaridan. Jonibek Jo'rayev kadrlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, kapitan Orif Abdusattorov bilan navbatdagi ma'anaviy-ma'rifiy tadbir rejasini tuzayotgan ekan. Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan sport musobaqalari, zukkolik bahslarini o'tkazishni rejalashtirishibdi. Shuningdek, faxriylar bilan uchrashish uchun tayyorgarlik ko'rilayotgan ekan. Jonibek Jo'rayevni suhbatga tortdim.

– Tergov hibsxonada tartib-intizomga, qonun talablariga rioya etilishiga katta e'tibor qaratiladi. Bu xodimlardan doim hushyorlik, katta mas'uliyatni taqozo etadi. Ularni ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy



IIV JIED Uchinchi mintaqaviy hudud 8-tergov hibsxonasi boshlig'i vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi, mayor O'rol Xolmatov.



Tartibot va qo'riqlash bo'limi nazoratchisi, safdor Regina Kabakina va Tarbiyaviy ishlar guruhi katta inspektori, kichik serjant Javohir Mamajonov.

jiyatdan tayyorlash, mahoratini oshirish esa bizning vazifamiz. Shu maqsadda ko'plab ishlarni amalga oshirayapmiz, – dedi u.

Hamsuhbatimning aytishicha, 8-son tergov hibsxonasida o'tgan yili yuzdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilibdi. Xodimlar o'rtasida tashkil etilgan stol tennisi bo'yicha musobaqada tartibot va qo'riqlash bo'limi xodimlari mutlaq g'olib bo'lishgan. Minifutbol musobaqlari esa butun shaxsiy tarkibga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlagan.

Hibsxona xodimlarining ijtimoiy himoyasi doimiy e'tiborda. O'tgan yili ikki nafar xodimga uy-joy olishda ko'maklashilgan, o'ndan ortig'iga turli ko'rinishdagi ijtimoiy yordam berilgan. Bu esa shaxsiy tarkib o'rtasida sog'lom muhitni qaror topirishda, mas'uliyatni oshirishda va intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

TARBIYA ORQALI HAYOTGA YO'L

Mazkur muassasada jazo o'tayotgan mahkumlar ham bor. Ulardan ayrimlarining jazo muddati tugashiga oz qolgan. Mahkumlarni qayta tarbiyalashga katta e'tibor qaratilyapti. Tarbiyaviy ishlar guruhi katta inspektori, kichik serjant Javohir Mamajonov ana shu vazifaga mas'ul. U mahkumlarni kasbga yo'naltirish, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratadi.

Farg'onalik 26 yoshli N.M. o'g'rilik jinoyati uchun uch yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Uning jazo muddati tugashiga bir yil qolibdi. O'tgan yillar davomida oilasi, yaqinlari, do'stlarisiz hayot qanchalik og'irligini his qildi. Ozodlik deb atalmish ne'matning qadriga yetdi. Bu yerda elektr buyumlarini ta'mirlash hunarini o'rganib oldi.

Bir so'z bilan aytganda, jazoni ijro etish muassasasida qonun ustuvorligini ta'minlash, adashib jinoyat ko'chasiga kirib qolgan shaxslarni tarbiyalash borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jamiyatda kriminogen vaziyatni sog'lomlashtirishga salmoqli hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Guliston – Xovos – Guliston.



Tergov-hibsxona boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Jonibek Jo'rayev.



Kasbiy tayyorgarlik guruhi katta inspektori, mayor Shuhrat Husanov va Kadrlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, kapitan Orif Abdusattorov.



JANGOVAR RUH – JANGCHINING QUROLI



Ichki ishlar vazirligi Moliya va moddiy-texnika ta'minoti departamenti Harbiy tuzilmalarning faoliyatini ta'minlash bazasi mutaxassislari tomonidan zamonaviy texnik qo'riqlash vositalarini ishlab chiqarish hamda ularni joriy qilish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Bo'linmada ishlab chiqarilgan zamonaviy IT texnologiyalarga asoslangan texnik vositalarni amaliyotga tadbiiq etish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu borada ilg'or uslublardan foydalanish va o'rganish, harbiy tuzilmalardan ta'mirlash uchun olib kelingan texnik vositalarni vaqtida tamirlash, ularga sifatli texnik xizmat ko'rsatish, qo'riqlanayotgan obyektlarda o'rnatilgan texnik qo'riqlash vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarish faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan xorij tajribalarini o'rgangan holda Ichki ishlar vazirligining sohaviy xizmatlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilinmoqda.



Podpolkovnik To'lanboy Abdumajitov komandirlik qilayotgan Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli Toshkent viloyatida joylashgan 7535-harbiy qismda Vatan tinchligi, osoyishtaligini ko'z qorachig'idek saqlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar talaygina. Bir tan-u bir jon bu harbiy xizmatchilar o'zlariga birlashtirilgan obyektlarning har qarichini ishonchli qo'riqlashga qodirdirlar. Zero, ularga nazar tashlar ekansiz, Vatanimiz tinchligi ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

O'z muxbirimiz.



КАК ЖИВЕШЬ, РОВД?

РАБОТА НА УПРЕЖДЕНИЕ

В Джалакудукском районе Андижанской области проживают более 180 тысяч человек, он граничит с Кургантепинским, Ходжабадским и Пахтабадским районами. Мир и покой граждан обеспечивают территориальные инспекторы профилактики и сотрудники других служб ОВД.



Старший лейтенант Рахматилло Каримжонов с жителем махаллы аксакалом Рузиматом Умаровым.

Территория, которую обслуживает инспектор профилактики старший лейтенант Рахматилло Каримжонов, расположена в махалле Дон кишлок, где проживают более трех тысяч жителей. Несколько лет этот участок входит в «зеленую зону». Здесь не совершено ни одного преступления.

– Положительной динамики удалось достичь благодаря тесной связи инспектора профилактики с общественностью, аксакалами, активистами махаллинского схода граждан, – делится старший лейтенант Р. Каримжонов. – Работаем, как говорится, на упреждение.

Инспектор профилактики вместе с председателем махаллы Отабеком Умаровым, помощником хохима Машхуром Каххоровым, лидером молодежи Гулнорой Умаровой, активисткой по женским вопросам Хаитхон Мусавоевой и специалистом по социальной защите населения Акмалжоном Умаровым регулярно совершают подворные обходы. Узнают о наболевших проблемах, стараются их решать в короткие сроки, выслушивают дельные предложения и жалобы. Они в курсе всего происходящего в махалле. При этом ведется активная

профилактическая работа среди населения. Итог этому – предупреждение правонарушений и преступлений.



Следователь майор Икболжон Бахтиев.

Выпускник Андижанского машиностроительного института Рахматилло Каримжонов служит в органах внутренних дел с 2020 года. Его наставником на начальном этапе был старший инспектор профилактики майор Ихтиёржон Эгамов.

Следователь следственной группы при Джалакудукском РОВД Икболжон Бахтиев выпускник Академии МВД. После окончания учебного заведения работал оперуполномоченным отделения уголовного розыска Кургантепинского РОВД, с 2020 года на занимаемой должности. В канун Нового года пришла радостная весть,

капитану И. Бахтиеву присвоено очередное звание «майор».

Что касается инспектора-психолога группы по вопросам несовершеннолетних лейтенанта Шерзодбека Хаитова, он выпускник Ферганского государственного университета. В органах внутренних дел с 2022 года. Несмотря на небольшой срок службы, завоевал доверие у подростков на вверенном ему участке. Надо отметить, что территория не маленькая, сюда входят махаллы Урги, Янгизор, Кора гул, Бустон, Жалакудук и Дон кишлок.

Шесть школ, в которых обучаются более 5 тысяч учащихся.

– В прошлом году к нам поступило заявление из одной школы. В нем го-

ворилось, что учащийся 10 класса Ахмад Туракулов (имя и фамилия изменены) часто пропускает уроки, дерзит преподавателям, не может найти общий язык с одноклассниками, – рассказывает Ш. Хаитов. – В целях изу-



Старший эксперт-криминалист капитан Абдулвохид Абдуллаев.

чения фактов, указанных в заявлении, отправился по месту жительства подростка. Выяснилось, что глава семьи любитель спиртного. Он часто приходил домой в состоянии алкогольного опьянения, устраивал скандалы. Семья относилась к категории малообеспеченных. Ахмаду, как и другим его сверстникам, хотелось иметь «крутой» телефон. Он стал копить деньги, подрабатывая грузчиком на дехканском рынке. В эти дни он не посещал школу. Подросток был поставлен на учет. С ним проводится индивидуальная профилактическая работа. Он стал регулярно посещать школу.

Вот еще один пример из будней сотрудников РОВД. Поздно ночью неизвестные, сломав замок на двери игрового центра, проникли внутрь и похитили 4 комплекта компьютеров. По заявлению вла-

дельца игрового центра на место происшествия выехала оперативно-следственная группа, в составе которой был старший эксперт-криминалист экспертно-криминалистической группы капитан Абдулвохид Абдуллаев. На месте происшествия ему удалось обнаружить несколько отпечатков пальцев. АДИС «Папилон» идентифицировал отпечатки, изъятые на месте преступления, с отпечатками пальцев двух ранее судимых парней, жителей Джалакудукского района. По подозрению в совершении преступления они были задержаны. У одного из них в доме был найден комплект компьютерной техники, похищенный из центра. Возбуждено уголовное дело, ведется следствие.

В статье приведены примеры показательной службы лишь некоторых самоотверженных сотрудников. На самом деле тех, кто вносит свой вклад в благополучие и спокойствие народа, очень много. Они служат во благо соотечественников.



Лейтенант Шерзодбек Хаитов беседует с несовершеннолетним Дилёром Олимжоновым.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



KIBERXAVFSIZLIK: ilg'or tajriba va amaliyot

O'tgan yilning 21–29-dekabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasining Pekin shahridagi Pekin politsiya kollejida «Kiberjino-yatchilikka qarshi kurashish: O'zbekiston – 2023» mavzusida o'quv-seminar bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi IIV Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi hududiy bo'linmalari va Davlat xavfsizlik xizmati xodimlaridan iborat delegatsiya ishtirok etdi.



O'quv-seminardan ko'zlangan maqsad – Pekin politsiyasining yangi turdagi kiberjino-yatlarga qarshi kurashish, raqamli dalillar bilan ishlash, ularni tadqiq qilish, elektron qurilmalardagi ma'lumotlarni tiklash, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan ishlanmalar, shuningdek, bulutli texnologiyalarda xavfsizlikni ta'minlash, kiberjino-yatchilikning oldini olishga qaratilgan yechimlar bilan tanishish va mamlaka-

timizda qo'llash bo'yicha asosli takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Seminar mashg'ulotlarida bugungi kunda kiberxavfsizlik dolzarb masalalardan biriga aylangani, kollejda bu fan sifatida kiritilib, birinchi bosqichdan boshlab talabalarga o'rgatib kelinayotgani ta'kidlandi. Delegatsiya a'zolari Xitoy politsiya xizmatlari tomonidan amaliyotda foydalanib kelinayotgan raqamli laboratoriya, elektron qurilmalarni tadqiq qilish va ulardagi ma'lumotlarni tiklash uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalar va elektron qurilmalar bilan ham tanishdilar. Bundan tashqari, laboratoriyada sudga oid uyali aloqa vositalari, qurilmalarning chiplari ekspertizalari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishdi. Shuningdek, kollej tomonidan talabalarga o'quv mashg'ulotlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan virtual videoqo'llanma namoyish etildi.

Politsiya kollejining «Kiberxavfsizlik» kafedrasini mudiri Syao Tan, professor Yu Xunxao va boshqa o'qituvchilar bilan bo'lgan davra suhbatida delegatsiya a'zolari hozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasida kiberjino-yatlarning turlari hamda ularni fosh etishda erishilayotgan yutuqlar yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olib, o'zaro tajriba almashishdi.

Lochinbek ATOYEV,
mayor.

BILIM BAHSLARDA SINALADI

Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Qarshi shahrida joylashgan 7533-harbiy qismda ona yurtimiz himoyachilari ishtirokida kitobxonlik kechalari, tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolarga sayohat, ochiq eshiklar kuni kabi ko'plab tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, yaqinda harbiy xizmatchilar ishtirokida «Zakovat» intellektual o'yini tashkil etildi. Unda qatnashgan jamoalar a'zolari berilgan savollarga javob qaytarar ekanlar, o'z bilim va salohiyatidan kelib chiqqan holda mantiqiy yondashib, nimalarga qodir ekanliklarini namoyish etishdi.



Mazmunli va qiziqarli o'tgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, 3-batalyon harbiylaridan iborat bilimdonlar jamoasiga teng keladigan raqib topilmadi.

G'olib va sovrindorlar harbiy qism qo'mondonligi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Azamat XOLMATOV.



MULOHAZA

AVTOTURARGOH QAYERDA?

yoxud haydovchilarni qiynaydigan muammo

Bugun yurtimiz ulkan qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylangani har bir vatandoshimizning qalbini faxr va iftixorga to'ldiradi. Ko'p qavatli turarjoylar, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurilib, shaharlarimiz kundan-kunga obod va fayzli maskanlarga aylanib borayotgani e'tirofqa sazovordir. Ammo mazkur jarayonda avtomobil boshqaradigan hamyurtlarimizning haqli e'tiroziga sabab bo'layotgan bir muammo borki, uni gapirmaslikning iloji yo'q...

Hozir katta yo'l yoqalari va serqatnov joylarga qurilayotgan ayrim binolar oldida avtomashinangizni qo'ygani joy topa olmasdan, ancha jig'ibiyron bo'lasiz. Shu yerdagi qaysidir tashkilotda yumushingiz borligi uchun mashinani yo'l chetida qoldirib, ichkariga kirib chiqishga majbursiz. Agar u yer ham mashinaga to'la yoki taqiqlovchi belgi bo'lsa-chi?..

Yaqinda ana shunday holatga tushib, asabi buzilgan yurtdoshimizdan birini uchratib qoldim.

– Mana bu ahvolni qarang, – deydi yoshi oltmishlarni qoralab qolgan haydovchi. – Baland-baland imoratlarni qurib, hamma joyni obod qilishgani yaxshi-ku, ammo, atrofida mashina qo'ygani avtoturargoh tashkil etmagan odamni taajjubga soladi. Odamlardan avtoturargoh qayerda, mashinamni o'sha joyga qo'yay, deb so'rasam, ularni ham shu muammo qiynayotgan ekan. «Bu binolarni qurganlar avtoturargoh haqida o'ylab ham ko'rishgani yo'q, amaki. O'zimiz ham har kuni mashinani qayerga qo'yishni bilmay boshimiz qotadi», deya javob berishdi. Nimaga qurilishlarni loyihalashtirishda shu narsani chetlab o'tishyapti. Axir, 6 qavatli mana shu binoga kuniga turli yumush bilan yuzlab avtomashinalar kelib-ketishini, nahotki, loyihasini chizganlar va qurayotganlar bilmasa?..

Bu Farg'ona shahrida yashovchi birgina fuqaroning fikri, xolos. Avtoturargohlar muammosi mamlakatimizning barcha shaharlarida, hatto poytaxtimizda ham haydovchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotganini eshitib qolamiz.

Ba'zi haydovchilar mashinani yo'l chetiga qoldirganda qatnovga halaqit berishi, kimlarnidir qoidalarni buzishga majbur qilishi, hatto yo'l-transport hodisalarini yuzaga keltirishini o'ylashmaydi. Ayrim ko'p qavatli uylar atrofida bunday maxsus joylar yo'qligi uchun odamlar mashinalarini piyodalar yo'laklariga, bolalar maydonchalariga yoki ko'kalamzorlashtirish uchun ajratilgan hududlarga ham qo'yib ketishadi. Chunki boshqa chorasini yo'q. Eng qizig'i, ayrim yo'llarda to'xtab turishni taqiqlovchi belgi qo'yilgan-u, biroq shu atrofda mashina qo'ygani maxsus joy topilmaydi. Bunday vaziyatda haydovchi nima qiladi? Mashinasini qayerga qo'yadi, degan haqli savol tug'ilaveradi.

– Bu haqiqatan ham, ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'layotgan muammo, – deydi Farg'ona viloyati

IIB YHXB katta inspektori, kapitan Elbek Qobilov. – Ayniqsa, istirohat bog'lari, teatr va konsert saroylari va aholi ko'p to'planadigan savdo majmualari oldidagi avtoturargohlar maydonining kichkinaligi yoki umuman yo'qligidan yo'l chetiga mashinalar to'planishi hamda tirbandliklar vujudga kelishi yo'l-patrul xizmati xodimlarini ham jiddiy tashvishga soladi. Biz xizmat rayonida bunday muammolarga deyarli har kuni duch kelamiz va imkon qadar tirbandliklarning oldini olishga urinamiz. Bayram kunlari bunday manzara ikki hissaga ortadi. Bu muammoning yechimi esa har qanday binoshootni qurishdan avval avtoturargohlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratish, qurilayotgan binolarning hajmini hisobga olib, yetarli darajada joy ajratish kerak, deb o'ylayman.

Mamlakatimizda avtomashinalar soni yildan-yilga ortib borayotganini hisobga olsak, bu masala hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



QATRA

Murod ertalab uyining dala tomonga qaragan derazasini ochsa, shundoq pastdagi qurigan ko'chatning o'rnida qolgan chuqurchada oppoqqina mushuk yotibdi. Mushuk boshini ko'tarib, Murod tomon qarab, bir nimadan umidvor bo'lganday miyovlab qo'ydi.

«Jonivor och bo'lsa kerak» deb oshxonaga kirib, muzlatkichni ochib qarasa, kechagi ovqatdan bir kosa qolgan ekan. Ovqat yuzidagi go'shtdan ikki bo'lagini olib, iziga qaytdi.

Qarasa, mushuk hamon derazaga tikilib turgan ekan. Go'shtning hidini sezib, o'rnidan qo'zg'aldi.

Murod go'sht bo'laklarini tuproqqa bulg'anmasin deb shundoq devorga yopishgan beton supachaga tashladi. Mushuk birpasda go'shtlarni yeb bo'lib, «Yana bormi?» deganday Murodga qaradi. «Bugunga yetadi», – dedi kulimsirab, so'ng derazani yopdi.

Ertasi ham, indiniga ham bu hol takrorlandi. Har gal mushuk ertalabki nasibasini paqqos tushirib bo'lgach, labi-lunjini yalab, yana umid bilan qarab turardi. Murod bo'lsa har gal «Bugunga yetadi», – deb qo'yardi.

Uchinchi kuni kechqurun qaynisi katta nevarasini ergashtirib, mehmon bo'lib keldi. Ancha payt u yoq-bu

yoqdan gurunglashib o'tirishdi. U gap orasida nevaralari ko'chadan mushuk olib kelishgach, uyini burga bosib ketganini, undan hamma yoqni dezinfeksiya qilib zo'rg'a qutilishganini aytib qoldi.

Shundan so'ng Murodning ichiga g'ulg'ula tushdi. «Birinch qavatda turamiz. Haligi mushukning burgasi bo'lsa, uyimizga o'tib ketsa-ya!» deb xavotirga tushib qoldi. Ertasi kuni derazaning oldiga bordi-yu, lekin uni ochmadi. Jalyuzi orasidan asta pastga mo'raladi. Mushuk chuqurchani to'ldirib yotar, damba-dam deraza tomon qarab qo'yardi. Murod asta

orqaga tisarilib, derazadan nari ketdi. Bu hol ertasi ham, indiniga ham takrorlandi. Nihoyat to'rtinchi kuni mushuk kelmadi – chuqurcha bo'm-bo'sh edi.

Murodning ichida nimadir chirt uzulganday bo'ldi. Derazani lang ochib, atrofga alangladi – mushuk ko'rinmasdi. Shundan so'ng ertasiga ham, indiniga ham mushukni kutdi, ammo undan darak bo'lmadi. Har gal pastdagi chuqurcha bo'm-bo'shligini ko'rib bag'ri ezilardi. Nihoyat bir kuni teshani olib, pastga tushib, chuqurchani ko'mib tashladi. Lekin yuragida paydo bo'lgan chuqurchani endi qanday to'ldirar ekan...

Bobomurod TOSHEV.

CHUQURCHA



ODAM SAVDOSI – DAVR MUAMMOSI

HAROMDAN HAZAR QILMAYDIGANLAR

Sharof Rashidov tumanining «Qahramon» mahallasida yashovchi Z.A. xotin-qizlarni chet elda fohishalik qilishga yollash tashvishiga tushib qoldi. Bunga ijtimoiy tarmoqda tanishgan moskvalik dugonasining Rossiya poytaxtiga yuborilgan har bir ayol uchun 1000 AQSH dollaridan haq to'lashga oid va'dasi sabab bo'ldi. Boz ustiga, xorijlik «hamkor»i qullikka sotilayotganlarning yo'l xarajatlarini qoplashini bildirdi.

Z.A. o'ziga tanish ayollarni Moskvada katta pul topish imkoniyatidan foydalanishga unday boshladi. Bu esa viloyat IIB TQX JQB Odam savdosiga qarshi kurashish bo'linmasi xodimlarining e'tiboriga tushdi. Qisqasi, Z.A. o'z mahalladoshi

B.H. hamda Jizzax shahri-ning «Yoshlik» mahallasida yashovchi Sh.M.ni oyiga 2000–2500 AQSH dollari topishlariga ishon-tirib, xorijda «ishlash»ga ko'ndirdi. O'z navbatida,

chet ellik dugona uning bank plastik kartasiga pul ko'chirdi. Ushbu mablag' ayollarga xo-

rifga chiqish pasportini rasmiylashtirish va avi-achiptalar sotib olishga sarflandi.

Ayollarning Moskvaga uchishi aniq bo'lgach, ichki ishlar organi xodimlari B.H. va Z.A. bilan muloqot o'tkazib, xavfli safarning oqibatini tushuntirdilar. Natijada yurtdoshlarini sotish uchun olib ketayotgan odamfurush Do'stlik tumanidagi «Manas-25» YPX postida qo'lga olindi. Guvohlar ko'rsatmasi va boshqa bir qancha dalillar tufayli gumonlanuvchi-ning aybini isbotlash qiyin kechmadi. Sud unga 3 yillik ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

BIR JINOYAT TAFSILOTI

KIRAKASHNING DO'STI

Boyovut tumani IIB TQX JQB tezkor vakili, kapitan Nosirjon No'monov avtobekatga yo'l oldi. Yaqinda bu yerdagi do'konda o'g'irlik sodir bo'lgandi. Qariyb 30 million so'mlik mollar o'g'irlab ketilgan. Jinoyatchilar qish kechasida elektr energiyasida uzilish ro'y berishini kutishgan. Tun yarmida do'kon eshigini buzishgan. Aksiga olib, chiroq o'chgani bois uzoq-yaqindagi videokuzatuv kameralari ham ishlamagan.

Jinoyatni fosh etish qanchalik kechiksa, izlar shuncha yo'qolaveradi. Jinoyatchilar esa bundan ruhlanib, yangisiga qo'l uradi.

Bekatkda mijoz kutib o'tiradigan kirakashlar ham kuzatuvga olindi. Mohir izquvar o'ttizga yaqin kirakashni hisobga oldi. Ularni surishtirdi. Ishxonaga qaytib, aksariyati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirdi. Kirakashlar orasida do'kon egasining qarindoshlaridan biri borligi ma'lum bo'ldi. Kulganida sariq tishlari ko'zga tashlanadigan 31 yoshli Shuhrat (ismlar o'zgartirildi) ismli kimsaga hamkasblari «Ayyor» deya laqab qo'yishgandi. Boisi, u doim mijozlarni yo'ldayoq urib ketar, boshqalarning navbati bo'lsa ham, ustomonlik qilishga ulgurardi. Gumonlanuvchilar orasida u yaqqol ajralib turardi. Yaxshigina uy ko'targan, tagida yap-yangi «Jentra». Qiziq, kirakashlikdan shuncha pul orttirish mumkinmi? Shubha kuchaydi.

Boshqa gumonlanuvchilar ham yo'q emas. Masalan, yaqinroqdagi mahallada yashovchi, muqaddam sudlangan Hakim bekatda etikdo'zlik bilan shug'ullanadi. Kichikina xonasida birovga aralashmay ishlaydi, bir qarashda hech narsa bilan ishi yo'qday. Surishtiruvlardan ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni Hakim choyxonada o'rtoqlari bilan ziyofatda

bo'lgan. O'zidan so'ralganida, uyga erta qaytganini aytib turib oldi. Uning gapini ulfatlari ham, choyxonachi ham tasdiqladi.

«Ayyor» esa o'sha kechasi Toshkentga odam olib ketganini, o'g'irlik sodir bo'lganini qaytganidan so'ng eshitganini aytib tushuntirish berdi. «Sirdaryo» blok-postidagi videokuzatuv moslamalaridagi tasvirlar



o'rganilganida, uning gaplari to'g'riligi tasdiqlandi. Mashina tungi soat ikkilarda postni kesib o'tgan.

O'sha kechasi Rossiyaga uchib ketgan 2 nafar shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar ham o'rganildi. Ulardan biri Shuhrat kirakashning yaqin do'sti bo'lib chiqdi.

Qidiruv atrofida shaharlarga ko'chdi. Bozorlar ko'zdan kechirildi. Yangiyer shahridagi bozor yaqinida ko'chada savdo qiluvchi ayol e'tiborni tortdi. Bozorga yangi chiqqani bililib turar, mollarni arzon-garov sotayot-

gandi. Mahalla profilaktika inspektoridan surishtirildi. Bog'liqlik topildi. O'rganishlar ushbu ayol Rossiyaga jo'nab ketgan Narimon ismli o'sha shaxs bilan yaqin aloqada ekanini ko'rsatdi. Yo'qolgan mollar bilan sotilayotgan mollar solishtirilganida ularning aksariyati mos keldi.

Tergov jarayonida ayol hammasini tan oldi. O'g'irlikni Narimon sodir etgan. U Rossiyaga ketadigan kechani qing'ir ishi uchun atayin tanlagan. O'zining «Neksiya» avtomobilida tun yarmiga qadar payt poylab turgan. Hech kim yo'qligiga amin bo'lgach, zimistonda do'kon qulfini buzgan. Mollarni pala-partish ortib, Yangiyerdagi ayolnikiga kelgan. Ularni sotib berish evaziga pulini arra qilishga kelishgan. Tovarlar bir oy ayolning kvartirasida yotgan. Hammasi tinchidi, deb hisoblagan ayol sekin-sekin ularni sotish uchun bozorga chiqargan.

O'g'irlikka «Ayyor»ning aloqasi yo'qligi ma'lum bo'ldi. Do'sti unga qilgan o'g'irligi to'g'risida lom-mim demagan. Tovarlarini tashlagach, uyiga qaytgan. Yo'l xaltasini olib, do'stining mashinasida Toshkentga, aeroportga yo'l olgan. Bu haqda respublikamizga deportatsiya qilinib keltirilgan Narimonning o'zi aytib berdi...

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

QILMISH – QIDIRMISH

«AFSONALAR VODIYSI»DAGI TALONCHILAR

Kosonsoylik 19 yoshli Botir Qirg'izov (ism-familiyalar o'zgartirildi) va 17 yoshli Nodir Temirovning ota-onalari ular tarbiyasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor berganlarida edi, bugun boshlari egilmagan bo'lardi. Tarbiyadagi nuqson tufayli bu ikki yosh mustaqil hayot bo'sag'asida jinoyatga qo'l urdi.

O'sha kuni Namangan shahridagi «Afsonalar vodiysi»da bir muddat be-maqсад aylanib yurgach, ikkovlon bir o'smirni to'xtatdi. Undan qo'ng'iroq qilib olishni so'rab, «Redmi 8» rusumli telefonini olishdi. So'ng omonotni egasiga qaytarib bermay, voqea joyidan qochib qolishdi.

– Ertasi kuni telefonni sotish uchun «Tergachi» bozoriga bordik, – dedi B.Qirg'izov aybiga to'la iqrar bo'lib. – O'sha yerda notanish bir yigitga ustiga 100 ming so'm berib, telefon apparatini boshqasiga almashtirdik va Namangan shahridagi «Chorsu» bozorida 430 ming so'mga sotib, ikkalamiz Toshkent shahriga ketdik. Qilgan ishimizdan chin ko'ngildan pushaymonmiz...

Tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida «Redmi 8» rusumli telefon apparati topilib, egasiga qaytarildi. Qilmishlari oqibatini o'ylamagan B.Qirg'izov va N.Temirov tegishli jazoga hukm etildi.

Alovudin IMOMOV,
podpolkovnik.

Namangan viloyati.

O'TGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN

IIV Tibbiyot boshqarmasi va Markaziy gospital rahbariyati hamda shaxsiy tarkibi gospital bo'linma boshlig'i, podpolkovnik **Olmosjon QODIROV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Xorazm viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi, Faxriylar kengashi iste'fodagi podpolkovnik Arkaboy Yusupovga o'g'li **Oybek YUSUPOV**ning bevaqt vafot etgani munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.



SALOMATLIK SABOQLARI

RUHIYAT SOG'LOMLIGI — MUHIM XUSUSIYAT

Ruhiy salomatlik psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo'lib, unda inson hayotdagi qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, ongli faoliyat olib boradi. Avvalo, bu psixikaning barqaror, yetarli darajada ishlashi, shuningdek, asosiy bilish jarayonlari; idrok, xotira, diqqat, tafakkur tufayli amalga oshiriladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, ruhiy buzilishlar dunyo aholisining taxminan 12 foiziga ta'sir qiladi. Bu qariyb 450 million kishi yoki dunyo bo'yicha har to'rtinchi odam ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch keladi deganidir.



Ma'naviy, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy salomatlik shaxsning individual salomatligi hisoblanadi. His-tuyg'u, tafakkur, xotira, xarakter esa ruhiy salomatlikning ko'rsatgichlaridan biridir. Atrof-muhitning zararli ta'siri, jismoniy kasalliklar, genetik dasturlashtirilgan xatti-harakatlar uslub, turli zararli odatlar – giyohvandlik, spirtli ichimliklar va chekishga qaramlik inson psixikasiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan sanaladi. Bu omillarning barchasi insonlarga u yoki bu shaklda ta'sir ko'rsatishi, ruhiy salomatlikni jiddiy izdan chiqarishi va hatto og'ir kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ruhiy salomatligini asrash va ularning murakkab vaziyatlarda stressga bardoshlilikini oshirish maqsadida sohaviy xizmatlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar xodimlari, psixologlar hamda psixiatr-shifokorlar bilan hamkorlik yo'lga quyilib, joylarda davra suhbatlari, trening mashg'ulotlari reja bo'yicha tashkil etilmoqda.

Xodimlarning tushkun kayfiyatda, depressiya holatida yurishi kasbdoshlari, boshliqlari o'rtasida, qolaversa, oilasida psixologik muhitning beqarorlashuviga sabab bo'ladi. Shuning uchun murakkab vaziyatlarda albatta psixolog yoki psixiatr-shifokor maslahatini olish zarur. Bu, o'z navbatida, boshqa somatik kasalliklar avj olishining oldini oladi.

Xodimlar ruhiy salomatligini asrashda rahbarlar o'z boshqaruvida xizmat olib borayotgan har bir xodimning muammolari bilan qiziqishlari, ijtimoiy himoyani kuchaytirishi, xodimlarni qo'llab-quvvatlashi, bir so'z bilan aytganda, jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratishi kerak.

Har bir xodimning ruhiy holati o'zgarishlari sir saqlanishini nazarda tutib, ularning psixolog yoki psixiatrlarga murojaatlari oshkor etilmasligi qonun bilan mustahkamlangan.

Ta'kidlash lozimki, psixologik jarohatga olib kelgan muammoning yechimini topish, muntazam jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish, ovqatla-

nish madaniyati, muomala madaniyati, salbiy emotsiyalarga berilmaslik, kitob o'qish, ko'proq kayfiyatni ko'tarishga harakat qilish, optimist insonlar bilan do'stlashish, oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlar bilan konsert, teatr tomoshalariga borish, o'zi yoqtirgan ish bilan mashg'ul bo'lish, ongosti salbiy fikrlardan ishonitirish orqali miyani tozalab turish ruhiy holat barqarorligining omillari hisoblanadi.

Ruhiy sog'lom odamlar o'zlarining jismoniy, aqliy, hissiy va ma'naviy jihatlarini muvozanatlashtirib, rivojlantirishga intilishadi. Ular o'zlarining mavjudligi o'z maqsadlariga muvofiqligini his etishadi, hayotlarini nazorat qilib turishadi, boshqalarning qo'llab-quvvatlashini his qilishadi va boshqalarga yordam berishga intiladi.

Komil QURBONOV,
Toshkent viloyati IIBB Tibbiyot bo'limi
poliklinikasi boshlig'i o'rinbosari,
podpolkovnik.



Перенервничали и мучаетесь от бессонницы?

Одна из самых частых причин, почему мы не можем уснуть, – высокий уровень кортизола. Это важный гормон – он защищает нас от стресса. Увы, если стресса много, то и кортизол тоже будет повышен. Так и начинается бессонница.

Как быстро уснуть

Когда кортизола много, важно расслабиться, чтобы на смену ему пришел гормон сна – мелатонин. В этом здорово помогает успокаивающий массаж.

Делается он так: в течение 2–3 минут перед сном растерайте внутреннюю часть запястья. Здесь находится одна из точек, воздействие на которую помогает облегчить боль и снять стресс. Более того, уделяя внимание этому чувствительному месту на теле, вы можете улучшить общее самочувствие.

Вовремя просыпаться без будильника

Другая частая проблема, особенно в холодное время года, – невозможность проснуться утром. Как обеспечить себе утренний подъем даже без будильника?

Правил всего три. Одно из них – имитировать восход солнца. Можно просто включать свет.

Важно также правильно завтракать. В утреннем рационе обязательно должны быть полезные жиры и сложные углеводы, потому что они придают нам энергию.


Конечно, чтобы проще было проснуться утром, лучше вовремя лечь спать вечером. Помимо точечного массажа, важно не наедаться перед сном, минимизировать физическую активность и не включать яркий свет.

Часто ли протираете телефон?

По данным исследований, человек проверяет свой телефон примерно 96 раз в день, или каждые 10–12 минут. Берет мобильный в руки, подносит к лицу во время разговора. Нередко мобильные передают другим людям – показать видео и др. При этом протирают устройства редко, а кто-то и вовсе никогда – боятся повредить. Так смартфоны превращаются в переносчиков опасных вирусов.

Строго соблюдайте гигиену рук. Телефон следует обрабатывать после каждого посещения публичных мест, общественного транспорта и т.д. И обязательно после окончания рабочего дня.

Регулярно обрабатывайте смартфон антисептическими средствами, особенно там, где корпус устройства соприкасается с лицом. Лучше всего использовать салфетки и гели на основе спирта.





MUNAJJIMLAR BASHORATI

(15 - 21-yanvar)



Qo'y. Sizni hodisalarga boy hafta kutmoqda. Bu davr ish munosabatlarini mustahkamlash uchun qulay bo'lib, o'z rejalarigiz haqida e'tiborli tanishlarga so'zlab berishingiz mumkin. Dam olish kunlari do'stlar va yaqinlaringiz bilan bog'laning.



Buzoq. Qishning bu davri o'ta omadli bo'lib, keskin o'zgarishlar va kutilmagan voqealar ham kuzatilishi mumkin. Hafta davomida har qanday tashabbus ijobiy natijalar berishi kutilmoqda. Vaqtni to'g'ri taqsimlash natijasida ko'pgina muhim vazifalarning uddasidan chiqishga muvaffaq bo'lasiz. Ishdan xoli kunlari xaridlar yoki har qanday moliyaviy harakatlarni amalga oshirishingiz mumkin.



Egizaklar. Bu hafta kuch-g'ayratingiz yetaridan ortiq bo'ladi. Lekin atrofdagi «quvvat so'ruvchi» nafaqat raqiblar, balki hamkasblar va do'stlardan ehtiyot bo'ling. Shu kunlarda katta pul mablag'i kelib tushishi mumkin, lekin uni o'ng-u so'lga behuda «sochmang». Haftaning so'nggi kunlarini o'zingizga, sog'liqni mustahkamlashga va miriqib dam olishga sarflang.



Qisqichbaqa. Hafta boshida do'stlarga sizning yordamingiz zarur bo'lib qolishi mumkin. Seshanbada vaqtingizni maishiy muammolarni hal etishga bag'ishlang. Chorshanba uchun rejalashtirilgan xizmat safarlari omadli kechadi, juma kuni esa bunday safarlardan uzoq turgan ma'qul. Dam olish kunlari uzoqdan qarindosh va yaqinlaringiz tashrifi kutilmoqda.



Arslon. Dushanba kuni pullik bonuslar olishingiz ehtimoli yuqori. Moliyaviy masalada tejamkor bo'lishga harakat qiling, pullarni behuda sarflamang. Chorshanba kuni yangi tanishlar orttirilishi, foydali aloqalar o'rnatilishi kutilmoqda. Oilaviy muammolarni hal etish harakatini haftaning ikkinchi yarmiga qoldirganingiz ma'qul.



Parizod. Kelayotgan hafta yangi narsalarni o'rganishga sabab bo'ladi. Bu davrda moliyaviy muammolarni imkon qadar hal etishga harakat qiling. Barcha g'oyalaringiz hayotga tatbiq etiladi, asosiysi, tavakkalchilikni talab qiladigan ishlarga aralashmang. Dam olish kunlarida rejalashtirilgan barcha tadbirlar ko'ngildagidek o'tadi.



Tarozi. Bu davrda ko'proq ijodiy ishlar bilan shug'ullanasiz, bunda chorshanba eng omadli kun hisoblanadi. Gap foydali bitimlar va istiqbolli shartnomalar haqida ketmoqda. O'z iste'dod va qobiliyatlaringizni ko'rsatishdan, do'stlarga ko'mak so'rab murojaat qilishdan cho'chimang. Juma kuni sevimli ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Chayon. Dastlabki uch kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haftaning ikkinchi yarmi yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish, sarmoya tikish va yirik xaridlar qilish uchun qulaydir.




O'qotar. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Mazkur hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va faoliyatda yordam beruvchi foydali aloqalarni o'rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir. Hafta so'ngida barcha uchrashuvlarni bekor qilib, vaqtni uy sharoitida, huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.



Tog' echkisi. Haftaning ilk kunlari ishdagi yutuqlarga erishishni va'da qiladi, ayni shu davrda hatto bajarilishi eng qiyin bo'lgan vazifalarni ham hech ikkilanmay amalga oshirish tavsiya etiladi. Hayotda o'z juftini topmaganlarni bu haftada istiqbolli tanishuvlar, oila qurganlarni esa munosabatlarning yanada mustahkamlanishi kutmoqda.



Qovg'a. Hafta davomida butun kuch va shijoatni to'plab, o'rni bosib bo'lmas xodim ekaningizni hammaga isbotlang. O'zingizga bo'lgan ishonch darajasini yuqori ushlang, kasbiy mahoratingiz yuksakligiga hech kim shubha qilmasin. Seshanba omadli kun – sarflangan mablag' katta foyda keltiradi.



Baliq. Ko'pdan beri o'z yechimini topa olmayotgan masalalar aynan shu kunlarda hal bo'lishi mumkin. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun yanada faol harakat qilishingizga to'g'ri keladi. Shuningdek, bu hafta salomatligingizga jiddiy e'tibor qaratishni, barcha yumushlarni to'g'ri taqsimlab, vaqtda dam olishni unutmang.

14 ЯНВАРЯ – ДЕНЬ ЗАЩИТНИКОВ РОДИНЫ



OT USTIDA MOHIRLAR

Surxondaryo viloyati



Surxondaryo viloyati huquqni muhofaza qiluvchi organlari hamda Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bilan hamkorlikda Termiz tumanida joylashgan «Otchopar» massividagi «Chavandozlar maktabi»da yosh xodimlar uchun ot sporti va kamondan o'q uzish bo'yicha mahorat darsi tashkil etildi.

Unda ishtirokchilarga ot minishda amal qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik qoidalari haqida tushuncha berilib, kamondan o'q uzish sport turi bo'yicha merganlik mahorati sinovdan o'tkazildi.

Tadbirda faollik ko'rsatgan yosh xodimlarga Yoshlar ittifoqi viloyat kengashining tashakkurnomalari hamda kitoblar to'plami sovg'a qilindi.

O'z muxbirimiz.

«ZAKOVAT»DAN UCH SAVOL

Inson bu ishni yuz ming yillar burun bajaran boshlagan. Bu ishda dastlab insonga dengiz chig'anoqlari yordam bergan. Zamonaviy satiriklardan birining fikriga ko'ra, erkak miyasi shu paytda bexato ishlashga harakat qilgan ekan.

Savol: qachon erkaklar miyasi chalg'imagay ishlaydi?

Sohibqiron Amir Temur hazratlari boshlang'ich ma'lumotni muallim mulla Alibekdan olgan ekanlar. Qarangki, alifbodan dars beradigan mulla Alibekning bir nuqsoni sababli butun sinf juda qiynalishganligi yoziladi.

Savol: yoshi o'tgan tajribali o'qituvchi mulla Alibekning qanday nuqsoni bo'lgan?

Bu savol Abdulla Oripovning «Mutoyiba» she'ridan ilhomlanib tuzilgan.

Dunyo haqiqatan keng, unda shataloq ham otiladi, toshdek bir joyda qotib ham qolinadi. Aytishlaricha, inson bu dunyoda ularni topqani kelarmish. Ularni bozorsiz ham sotish mumkin, ammo sotib olish mumkin emas. Stokgolmda u nomdagi stadion bor, AQSHda eng mashhur seriallardan biri u nom bilan ataladi.

Savol: Abdulla Oripov she'ri nima haqida?



Mashhurlar hayotidan

ULUG' ADIB, MOHIR PAZANDA

Kitobsevarlar orasida bu adibning nomini bilmaydiganlar bo'lmasa kerak. Gap «Graf Monte-Kristo» va «Uch mushketyor» romanlari muallifi Aleksandr Dyuma (1802–1870) haqida ketyapti.

Yozuvchi 500 dan ortiq asar yozgan. Uning ijod namunalarini dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinib, millionlab nusxalarda nashr etilgan. Bu borada adibning oldiga tushadigan ijodkor yo'q. O'g'li ham adib, buning ustiga ismi Aleksandr bo'lgani uchun, uni ba'zan ota Dyuma (katta Dyuma) deb ham yuritishadi.

Aleksandr Dyuma nihoyatda ehtirosiga beriluvchan, qiziqqon inson edi. Bundan tashqari, turli masalalarda bahslashib, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishni yaxshi ko'rgan.

Yozuvchining jonivorlarga mehri bo'lakcha bo'lgan. Shuning uchun uyida it, mushuk, maymun, hatto Afrikadan keltirilgan kalxatlarini parvarish qilgan. Yana bir sevimli mashg'uloti pazandalik bo'lgan. U boy-badavlat bo'lishiga qaramay, ijoddan bo'sh paytlari o'zi tansiq taomlar pishirishni yoqtirgan. Buni ham ijodiy jarayon deb hisoblagan.



Postda
Ha nocty

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma № 90.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50092 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz